Ózbekstan Respublikası, sol qatarda Qaraqalpaqstan Respublikası jámiyetlik-siyasiy turmısındaǵı modernizaciya procesin jetik puqaralıq jámiyetiniń qalıplesiwisiz kóz aldımızǵa keltiriw múmkin emes, bunday jámiyetniń tiykarında shaxstıń jámiyetlik processlerge belsendilik penen aralasıwı jatadı. Puqaralıq baslamalardıń júzege asıwı, puqaralardıń sociallıq siyasattı qalıplestiriwde belsendilik penen aralasıwı, jámiyetlik institutlardıń rawajlanıwına xızmet etedi. Bunday institutlar qatarına hár qıylı mámleketlik emes birlespeler - sonıń ishinde siyasiy partiýalar, shólkemler, associaciýalar - jatadı. Búgingi kún turmısı kúshli mámlekette kúshli puqaralıq jámiyetke principin ámelge asırıp jumısların tezlestiriwdi talap etedi. Bul princip mánisi biz tańlap alǵan mámleketlik hám jámiyetlik qurılıs modeli boyınsha social-ekonomikalıq, jámiyetlik-siyasiy reformalardı iske asırıp barısında mámleketti basqarıwda puqaralardıń rolin jedelletiw wazıypası kúsheýedi. Bul, óz gezeginde, puqaralıq jámiyet institutları sistemasınıń bunnan bılay da rawajlandırıwdı, mámleketti, hákimshilik-aymaqlıq shólkemlerin basqarıw processlerine aralasıwın kózde tutadı.

Paydalanılǵan ádebiyatlar:

1. Каракалпакстан Республикасы Конституциясы. – Ноқис: Каракалпакстан, 2012
2. Жуманиязов Б. История формирования и развития институтов гражданского общества в Узбекистане в период независимости. –Т. Автореф. дисс. доктора философии (PhD) по ист наукам.
3. Қарақалпақстан тарийхы. – Н.: Илим, 2018
4. Жуманиязов Б. Указ. работа.

**YANGI O'ZBEKISTON-XALIQCHIL VA INSONPARVAR DAVLAT GOYASINI
AMALGA OSHIRISH MASALALARINING DOLZARBLIGI**

K. Primbetov

Ajiniyoz nomidagi NukusDPI Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrası dotsenti v.v.b., PhD. Nukus

M. Jumaboyeva

Ajiniyoz nomidagi NukusDPI Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Bugun biz tarixiy bir davrda — xalqimiz o'z oldiga ezgu va ulug' maqsadlar qo'yib, tinch-osoyshta hayot kechirayotgan, avvalambor o'z kuch va imkoniyatlariga tayanib, demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurish yo'lida ulkan natijalarni qo'lga kiritayotgan bir zamonda yashamoqdamiz.

Biz o'z taqdirimizni o'z qo'limizga olib, azaliy qadriyatlarimizga suyanib, shu bilan birga, taraqqiy topgan davlatlar tajribasini hisobga olgan holda, mana shunday olijanob intilishlar bilan yashayotganimiz, xalqimiz asrlar davomida orziqib kutgan ozod, erkin va farovon hayotni barpo etayotganimiz, bu yo'lda erishayotgan yutuqlarimizni xalqaro hamjamiyat tan olgani-bunday imkoniyatlarimizning barchasini aynan mustaqillik berganini bugun hammamiz chuqur anglaymiz [1].

Har bir davrda barcha rivojlangan davlat va jamiyatlar o'zlari uchun muhim bo'lgan yo'nalishlarda ma'lum bir maqsadlarga eltuvchi strategiyani ishlab chiqadi. Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan boshlangan demokratik islohotlar yo'lini yanada qat'iy davom ettirishga hizmat qiladigan, 2030-yillar uchun amalga oshirishga qaratilgan, asosiy maqsadi "Inson qadri uchun" degan ustuvor tamoyilni to'la ro'yobga chiqarish bo'lgan "Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari" tamoyili asosidagi Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi e'lon qilindi [3]. Bugungi davrda Yangi O'zbekiston "Inson qadri ustuvor bo'lgan jamiyat va xalqparvar davlat" degan muhim g'oya negizida barpo etilmoqda. Davlatimiz rahbari belgilab bergan bu ulug'vor maqsad asosida xalqimiz yangidan-yangi islohotlarning haqiqiy muallifiga aylanib bormoqda.

Shuningdek, yurtimizda yashayotgan xar bir fuqaroning, butun xalqimizning farovonligini ta'minlashga xizmat qiladigan "Yangi O'zbekiston – xalqchil va insonparvar davlat" goyasini amalga oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu asosda maxalliy boshqaruv organlarining joylarda muammolarni xalq etishdagi roli va mas'uliyati yanada kuchaytirilmokda. Xususan, ma'naviy-marifiy ijtimoiy-siyosiy sohalarida ishlar muvaffaqiyatli bo'lmoqda. Yoshlarning ma'naviy ongini rivojlantirish, xalqimiz milliy-ma'naviy qadriyatlarini anglashda yuksak e'tibor qaratilmoqda. Hozirda yoshlarimiz turli davlatlar madaniyatini o'zlariga singdirib olmoqdalar. Shuningdek, G'arb davlatlarining madaniyatiga taqlid qilib, o'zlarimizning milliy-ma'naviy qadriyatlarimiz unutilmoqda. Yoshlarimizning yurish-turishlari, kiyinish madaniyati hattoki ular o'zbek tilida gaplashayotganlarida ham sof tilimizni buzib talqin qilishadi, turli xil chet so'zlarni qo'shib gapirmoqdalar. Shu sababdan hozirda ma'naviy-marifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha hamda mamlakatimizda ma'naviy-marifiy ishlarni tizimli tashkil etish, bu borada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish, aholi, ayniqsa yoshlarning intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish, mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, vatanparvarlik, xalqqa muhabbat va sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol avlodni tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Yoshlarning huquqiy salohiyatini oshirish hamda huquqiy madaniyatini yuksaltirish bo'yicha keng chora tadbirlar yo'lga qo'yilmoqda. Har bir O'zbekiston fuqarosi o'z huquq va erkinliklaridan bimalol foydalanishlari uchun davlatimiz keng sharoitlar yaratib bermoqda. Siyosiy ma'rifatni oshirishning tayanch nuqtasi siyosiy savodxonlik va ta'lim hisoblanadi. Jamiyatda demokratik siyosiy ongini rivojlantirish orqali faol fuqarolik imkoniyatlarini kengaytirish mumkin.

Biz rivojlangan demokratik davlatlar tajribasini o'rganishda davom etamiz, demokratik qadriyatlarga doim qodirmiz. Shuning uchun demokratiya haqida gapirganda biz avvalambor, enf rivojlangan davlatlar qatoriga kirish, eng muhimi, ular qo'lga kiritgan yutuqlarni o'zlashtirishni nazarda tutamiz [2].

Yurtimiz taraqqiy topib yuksalishi, o'zining ma'naviy-marifiy, milliy qadriyatlari ijtimoiy-siyosiy sohalarida o'z o'rnini topishi hamda buyuk rivojlangan davlatlar qatorida turishimiz uchun Taraqqiyot strategiyasi ishlab chiqilgan va o'zida alohida maqsad va ustuvor yo'nalishlarni jamlagan. Shuningdek taraqqiyot strategiyasi orqali yoshlarimiz o'zlarining ma'naviy marifiy huquqiy-salohiyatini oshiradi. Mamlakatimiz tarixda buyuk ota-bobolarimiz orzu qilgan marralalarga erishadi. Taraqqiyot strategiyasida belgilangan muammolar o'z dolzarbligi bilan yechimini asta-sekin topmoqda hamda Uchinchi Renessans davri uchun poydevor bo'lmoqda. Bunga biz yoshlar ham o'z hissamizni qo'shmoqdamiz.

Adabiyotlar:

1. I.Karimov. Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch. Toshkent. Ma'naviyat -2008. 3-bet
2. I.Karimov. И. Каримов. Она юртимиз бахт-у икболи ва буюк келажаги йулида хизмат килиш – энг олий саодатдир. Toshkent – "ЎЗБЕКИСТОН" НМИУ – 2015. 106-бет
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022- 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni.

SEKULARİZM TÚSINIǵI HÁM ONIŃ MAZMUNI

N.T.Orunbetov

Ájiniyaz atındaǵı NókisMPI docent w.w.a., PhD. Nókis

Sh.A.Atamuratov, A.B.Seyilxanov

Ájiniyaz atındaǵı NókisMPI 4-kurs talabası. Nókis

Dúnya kólemindegi búgingi siyasiy jaǵday tez ózgerip, dúnyanıń ayırım aymaqlarında barǵan sayın keskinlikler, túrli qarama-qarsılıqlar, konflikt hám qan tógiliwler kúsheyip, xalıqaralıq terrorism, ekstremizm hám radikalizm qáwpi artıp baratırǵanlıǵı bizde tereń táshwish hám qáweter oyatpaqta. Bul óz gezeginde, dúnya mámleketleriniń din menen ózara qatnasıqlarına da tásirin tiygizbey qoymaydı. Mámleketler óz siyasatında dúnyalıq hám din ortasındaǵı qatnasıqlardı tártipke salıw júda názik másele ekenligin tereń ańlaǵan halda, bul qatnasıqta altın joldı tutıw ushın sekulyarizmniń roli jetekshi ekenligin ańlap jetpekte.

Ǵárezsizlik alǵan kúnnen házirgi künge shekem Ózbekstan huqıqıy-demokratiyalıq mámleketke tán bolǵan hújdan erkinligi, tolerantlıq, milletler aralıq tatıwlıq, ulıwmalıq tán alınǵan xalıqaralıq normalar hám principlerdi óz siyasatınıń baslı baǵdarlarınıń biri sıpatında belgilegen.

Bul baǵdarda mámleketimizdiń durıs jolda siyasat alıp barıp atırǵanlıǵına tiykarǵı nızam Konstituciyamızdıń 1, 35, 71, 75-statıyalarındaǵı huqıqıy normalar negiz bolıp xızmet etedi [1].

2022-2026 jıllarǵa mólsherlengen Jańa Ózbekstannıń rawajlanıw strategiyasınıń V, VII baslı baǵdarlarında da mámlekettiń din menen ózara qatnasıqlarınıń huqıqıy negizleri belgilep alınǵan [2].

Zamanagóy dáwirde din hám mámlekettiń bóliniwi konstituciya hám huqıqıy tiykarlarda bekkemlengen kóplegen demokratiyalıq jámiyetlerde sekulyarizm tiykarǵı principke aylandı. Sekulyarizm degende, kóbinese liberal demokratiyanıń áhmiyetli strukturalıq bólegi sıpatında qaraladı, bul húkimet institutlarınıń diniy isenimlerge salıstırǵanda neytral bolıwın hám adamlardıń mámleket aralasıwıwız óz isenimlerin erkin ámelge asırıwın támiyinleydi. Bul bóliniw diniy isenimine qaramastan, barlıq puqaralardıń huqıqların qorǵaw hám diniy shólkemlerdiń siyasiy qararlar qabıllaw processine nadurıs tásir kórsetiwiniń aldın alıwǵa qaratılǵan.

Sekulyarizm mámleket institutları diniy shólkemlerden ajratılǵan dúnyalıq mámleket principini tiykarında isleydi. Bul ajırılıw kóbinese belgili bir dinniń mámleket tárepinen qollap-quwatlanbawı, din hám isenim erkinligin qorǵaw, puqaralardıń isenimi bar yamasa joq ekenligine qaramastan, teńlikti tán alıw sıyaqlı normalarda kórinedi. Dúnyalıq mámleketler, ádette, belgili bir dindi ajratıp qaramaydı, diniy táliymatlarǵa emes, bálkim dúnyalıq principlerge tiykarlangan nızamlardı qollap-quwatlaydı.

Óziniń kóp abzallıqlarına qaramay, sekulyarizm túrli qatlamlar, atap aytqanda, diniy institutlar, konservativ hám dástúriy qádiriyatlarǵa sadıq toparlar tárepinen sın pikir hám qarsılıqlarǵa dus keldi.

Sekulyarizm – bul siyasiy hákimiyat hám hákimshilik basqarıwdı qalıplestiriwdegi sistema bolıp, onıń tariyxıy tiykarları tolerantlıqqa barıp taqaladı. Jámiyetlik tınıshlıqtı támiyinlew maqsetinde, huqıqıy-demokratiyalıq mámleketler eki tiykarǵı wazıyanı bir waqıtta támiyinlew juwapkershiligin aladı: hár bir shaxsqa hújdan hám din erkinligin kepillew hám barlıq puqaranıń teńligin támiyinlew.

Sekulyarizm kóbinese, dindi puqaralıq isleri hám mámlekettin ajratıw, sonday-aq, hár qanday jámiyet tarawında dinniń rolin alıp taslaw yaki minimallastırıw ushın qollanıladı. “Sekulyarizm” ataması keń mánilerge iye hám hár qanday kontekstte dúnyalıq mámleketti eń jaydırıwshı hár qanday poziciyanı iyeleydi [3].

Sekulyarizmniń Batista, Benilyuks [4] -nemis, türk hám Amerika modelleri sıyaqlı hám onnan tısqari, Hindistandaǵı sıyaqlı, óz aldına dástúrleri bar [5].

Sekulyarizm túsiniǵin din menen tolıq kerı qoyıw qáte túsiniw. Olar dúnya hám insannıń ómiriniń mánisine túrlishe bolǵan qaras usılları bolıp tabıladı. Sekulyarizm túsiniǵinde diniy shólkemlerdi siyasiy shólkemlerden ajratıw hám dindi barlıq ushın tiykar etip almaw principini turadı. Din bolsa, kewilge baylanıslı sezim. Onı barlıqqa májburiy síndiriw hesh qaysı diniy principke tuwrı kelmeydi. Dúnyalıq rawajlanıw jolin tutqan mámleketlerde din mámlekettin ajratılǵan bolsa-da, jámiyetten ajırılmaǵan.

Sekulyarizm áyyemgi zamanlardan berli bar. Sekulyarizm koncepciyası dáslep, áyyemgi Greciya hám Rim imperiyası sıyaqlı klassik civilizaciyalarda óz kórinisin taptı. Bul eki aymaqtá diniy hám siyasiy hákimiyattıń bóliniwi túrli dárejede tán alınǵan. Grek qala-mámleketlerinde demokratiyalıq basqarıw diniy mákemelerden gárezsiz túrde iskerlik júrgizgen, dástúrler, bayramlar hám mámleket isleri diniy dástúrlerden bólek ótkerilgen. Rim imperiyası dáwirinde diniy hákimiyattı waqtınshalıq húkimetten ajratıw principi payda boldı, diniy isenimine qaramastan, jámiyetlik ómirin basqaratuǵın puqaralıq nızamlarınıń ornatalıwı sonnan derek beredi.

Orta ásirler Evropada xristian shirkewi tárepinen hákimiyattıń bekkemleniwine gúwa boldı, bul jerde shirkew hákimiyatı kóbinese waqtınshalıq basqarıw menen bir-birine sáykes keledi. Shirkew hám dúnyalıq hukimdarlar ortasındaǵı ústinlik ushın gúres yurisdikciya, salıq hám siyasiy tásir ortasındaǵı dawlarǵa alıp keldi.

XI-XII ásirlerdegi investiciya qarama-qarsılıqları [6] dúnyalıq hukimdarlar hám papalar ortasındaǵı qarama-qarsılıqlarǵa, episkoplardı belgilew hám dúnyalıq hákimiyattı qollaw kepilligine tiyisli tartıslarǵa pát berdi. Bul kelispewshiliklerdiń sońǵı sheshimi shirkew hám dúnyalıq húkimet ortasındaǵı anıq shegaralar zárúrligin kúsheytti.

XVII-XVIII ásirler aǵartıwshılıq dáwiri dúnyalıq oylawdıń rawajlanıwında sheshiwshi dáwir bolıp, Jon Lokk, Volter, Monteskyo sıyaqlı filosoflar shirkew hám mámleketti ajratıw tárepdarı bolǵan. Aǵartıwshı oyshıllar sana, aqıl, tolerantlıq hám shaxs erkinligin qorǵadı. Russo hám Xobbs sıyaqlı social shártname teoretikleri siyasiy húkimet ilahiy huqıq emes, bálkim basqarılatuǵınlardıń razılıǵınan kelip shıǵadı, – dep diniy hám siyasiy hákimiyattıń dástúriy birikpesine qarsı shıqtı. Siyasiy filosofiyadaǵı bul jıljıw shaxs erkinlikleri hám aqılǵa say basqarıwdı birinshi orınǵa qoyıwshı princip retinde sekulyarizmge sharayat jarattı.

Sekulyarizm XVIII ásir aqırı – XIX ásir basında payda bolǵan. Sekulyarizmniń payda bolıwında K. Markstıń kózqarasları da úlken rol oynanǵan.

Zamanagóy mániste “Sekulyarizm” sózin birinshi bolıp 1851 jılda ingliz agnostik jazıwshısı Jorj Holyoake isletgen. Alım sekulyarizmge tómendegishe táriyp beredi: “Zamanagóy gumanizm táriyplerine júdá uqsas... tek ateizmge qaraǵanda keńlew”. Sekulyarizmniń zamanagóy táriypleri, itimal jeke isenimlerde emes, bálkim shirkew hám mámleketti ajratıwǵa tiyisli.

Zamanagóy dáwirde sekulyarizm demokratiyalıq mámleketlerdi basqarıwda shaxs erkinliklerin qorǵawdı támiyinlew, teń huqıqlılıqtı támiyinlew, social tatıwlıqtı saqlawdıń tiykarǵı principine aylandı. Dúnyalıq basqarıw strukturaları diniy erkinlikni qorǵaw hám barlıq puqaralardıń huqıqların qorǵaw, shirkew hám mámleketti ajratıwǵa baslı baǵdar sıpatında itibar qaratadı.

Sekulyarizm global tásirge iye bolıp, dúnya boylap túrli mámleketler hám mádeniyatlardıń basqarıw strukturaların qalıplestirdi. Batis demokratiyalarınan tartıp, Jaqın Shıǵıs, Aziya hám Afrikadaǵı dúnyalıq mámleketlerge shekem, sekulyarizm principleri mámleket hám din ortasındaǵı múnásibetlerdi basqarıp, ádalatlı jámiyetlerdi xoshametlewge xızmet etti.

Paydalanılǵan ádebiyatlar:

1. Ózbekiston Respublikasi Konstitutsiyası. T: 2023.
2. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi Ózbekistonning taraqqiyot strategiyasi. Ózbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni. // <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>
3. Bullivant, Stephen; Lee, Lois, eds. (2016). "Secularism". A Dictionary of Atheism. Oxford University Press.
4. <https://ru.wikipedia.org/wiki/Бенилюк>
5. Hashemi, Nader (2009). "Secularism". In Esposito, John L. (ed.). The Oxford Encyclopedia of the Islamic World. Oxford: Oxford University Press.
6. <https://www.britannica.com/event/Investiture-Controversy>

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA FUQAROLIK HUQUQIY TARBİYANI
SHAKLLANTIRISHDA SAMARALI USULLAR VA METODLARDAN
FOYDALANISHNING AHAMIYATI**

Tilewov Erkinbay Muratbaevich

*Ajiniyoz nomidagi NukusDPI Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrası
dotsenti, pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD). Nukus*

Dauletbaeva Jadiraxan Aliy qizi

Nukus davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti. Nukus

Har qanday jamiyatda yosh avlodning ta'lim-tarbiyasi doimo dolzarb muammo sifatida e'tirof etiladi. Talim tarbiya tizimli, uzluksiz va to'g'ri yo'lga qo'yilgan bo'lsa gina kutilgan natijalarni beradi. Shaxsni shakllantirish va kamol toptirish jarayonida fuqarolik tarbiyasini berish talim-tarbiyaning muhim vazifalaridan biri. Uning ikkinchi muhim jihati esa yoshlarning ijtimoiy-huquqiy ongini shakllantirishda huquqiy tarbiyaning rolidir.

Fuqarolik tarbiyasi tagzaminida xalq o'tmishi, tarixini o'rganish milliy qadriyatlar mohiyatini anglashga asoslangan faoliyatga o'quvchilarni yo'naltirish ijtimoiy maqsadni amalga oshirishga qaratirilgan yo'l sanaladi. O'quvchilarni haqiqiy fuqaro etib tarbiyalash, ularda fuqarolik tuyg'usini rivojlantirish, fidoiy, vatanparvar fuqaro sifatida tarbiyalash asnosida ta'minlanadi. Yosh avlodda fuqarolik hissi va e'tiqodini tarbiyalamay turib, ularda axloqiy, xulqiy odatlar va huquqiy ko'nikmalarni shakllantirib bo'lmaydi. Shuning uchun ham fuqarolik tuyg'usini qaror toptirish murakkab jarayon hisoblanadi. Bunda dastlab o'quvchilarga fuqarolikning mohiyati va me'yoriy qoidalar mazmuniga oid ilk tushunchalar to'g'risida bilimlar beriladi. [1;218]

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2019-yil 9- yanvardagi PF-5618-sonli "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi farmonida ham huquqiy madaniyatni yuksaltirishda, eng avvalo, huquqiy ta'lim va tarbiya borasidagi ishlar tizimli va uzviy olib borilishi lozimligi ta'kidlanib, bunda ta'lim muassasalari, xususan, maktab ta'limida ham huquqiy savodxonlikni oshirish masalasi uchun alohida bob ajratilgan.

Xususan, yosh avlod ongiga huquq va burch, halollik va poklik tushunchalarini hamda odob-axloq normalarini chuqur singdirib borish, Konstitutsiyaning muhim jihatlarini ularga bolaligidan boshlab o'rgatish;

– maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarga bolalar huquq va majburiyatlariga doir mashg'ulotlarni joriy etish. Bunda maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining huquq asoslari va bola huquqlari bo'yicha bepul malakasini oshirish hamda mashg'ulotlarni o'tkazish uchun turli innovatsion loyihalarni yaratish choralarini ko'rish;

–bolalar va o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda huquqiy ong va huquqiy madaniyatini shakllantirishga qaratilgan Konstitutsiyaning va inson huquqlarini o'rganish bo'yicha ko'rgazmali qo'llanmalar tayyorlash va chop etish;

– maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga odob-axloq qoidalari va huquqning ilk tushunchalarini o'rgatish bo'yicha namunaviy qo'llanma yaratish;

– yangi avlod huquqiy darsliklari va o'quv qo'llanmalari tizimini yaratish. Bunda umumta'lim maktablari boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun huquqiy bilimlarni sodda va ko'rgazmali o'rgatishga qaratilgan o'quv qo'llanmalarini, shuningdek, ta'lim muassasalari uchun huquq fanlari bo'yicha o'quv darsliklari va qo'llanmalarini tayyorlash choralarini ko'rishsingari vazifalar belgilab berilgan[2].

Jamiyatning demokratiya yo'lidan jadal rivojlanishi va bu borada amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasiga bog'liq. Chunki, fuqarolarda huquqiy ong va madaniyatni rivojlantirish- jamiyatda barqarorlik, rivojlanish, adolat, fuqarolar huquqlarining ustunligini taminlashning asosidir. Jamiyatning har bir a'zosi o'z huquq va burchlarini hamda mas'uliyatini puxta bilishi, buni hayotiy ehtiyoj sifatida anglamog'i lozim. Fuqarolarimizning dunyoqarashi, tafakkuri mamlakat hayotiga, yangilanishlarga mos ravishda o'zgarib borishi huquqiy madaniyat tushunchasi bilan chambarchas bog'liqdir.

O'quvchi va yoshlarga huquqiy tarbiya berishda, ularda yuksak fuqarolik his- tuyg'ularni, sifat va xislatlarini tarkib toptirishda ta'lim va tarbiya birligi muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabda o'qitiladigan har bir fanning o'ziga xos tarbiyaviy ahamiyati va imkoniyatlari bor. Ana shu imkoniyatlardan o'z o'rnida to'g'ri foydalanish o'qituvchining bilim, tajriba va mahoratiga, ijodiy ishlashi, izlanishiga bog'liqdir. Avvalo, o'quvchiga fuqarolik odobi va madaniyati haqidagi tushunchalar beriladi, bu xildagi hatti-harakatlarga oid ibratli shaxslar faoliyatidan namunalar

keltiriladi, so'ngra faoliyat uyushtiriladi. Ana shu asosida ularda fuqarolik tushunchasi shakllanadi va fuqarolik xulqiy odatlari, ko'nikmalar hosil qilinadi. Badiiy va ilmiy adabiyotlar, matbuot yangiliklari, kinofilm, spektakl g'oyalari, turli suhbatlar mazmunini tushuntirish, targ'ib etib borish orqali o'quvchilar ongiga fuqarolik tushunchalari singdiriladi.

Abu Nasr Forobiyning pedagogikaga oid qarashlarida ta'lim – tarbiyani ilk yoshlikdanoq boshlash kerakligi uqtiriladi, ya'ni “ Agar kimki ilm, hikmatni desa, uni yoshligidan boshlasin, so'zining ustidan chiqsin, yomon ishlardan saqlanadigan bo'lsin, xiyonat, makr va hiylalardan uzoq bo'lsin, diyonatli bo'lsin, ilm va ahli ilmdan mol-dunyosini ayamasin” kabi fikrlari hozirgi davr ta'lim tarbiya tizimi uchun ham ahamiyatlidir.

Shuning uchun ham o'qituvchi o'quvchilarda huquqiy ongni shakllantirishda yuqoridagi jihatlarni inobatga olgan holda, boshlang'ich sinflardan ya yoshiga mos interaktiv metodlarni tanlay olishi va unga ijodkorona yondasha olishi muhim hisoblanadi. Pedagogik jarayon shakli ta'lim oluvchining mustaqil va ijodiy ishlash, kelajakda kasbiy va hayotiy muammolarini mustaqil yechish ko'nikma va malakalarini shakllantirish hamda rivojlantirishga yo'naltirilishi kerak. Bunda faol ta'lim metodlaridan unumli foydalanilishi, ta'lim maqsadlarining aniq qo'yilishi va erishiladigan o'quv natijalari pedagogik vazifalar shaklida ifodalanishi kerak.

Biz dars mavzusini anglashda va uni bayon qilishda: Biz nimani istaymiz? Fanning maqsadi nima?- deb savol berilganimizda, albatta, u o'quvchilarga o'quv materialini mazmunini to'la singdirish, ularga beriladigan bilimlarni mazmunan boyitish va qo'llash ko'nikmalarini shakllantirishni xohlaymiz. Lekin, biz har doim ham o'z maqsadlarimizga erisha olamizmi? Albatta yo'q. Shu o'rinda Deyl Karnegining “Muomala sirlari” kitobidagi keltirilganidek odamlarga ta'sir qilish uchun daslab ular nimani istashlarini tushunishimiz kerak.. Bolalar o'qish faoliyatini o'yin faoliyati bilan birga olib borishadi va kreativ pedagoglar bundan foydalanishi juda yaxshi natija beradi.

Ta'lim tizimiga yangi kirib kelgan texnologiyalardan biri bu o'qitishning kreativ texnologiyasi bo'lib, uning maqsadi – insonda ijodkorlikni uyg'otish va uning o'zida bor bo'lgan ijodiy imkoniyat (potensial)ni rivojlantirishdir. Kreativ texnologiya yangi kerakli bilim olish, yaratish va ishlab chiqarishga qaratilgan. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga huquqiy bilimlarni bayon qilish, ma'ruza, hikoya kabi usullar orqali berish ularda zerikishni keltirib chiqarishi va qiziquvchanligini pasaytirishi mumkin. O'qituvchining kreativligi asosida harakatli o'yinlar, metodlarni moslashtirib bolalarni o'ziga jalb qilinsa ko'zlangan maqsadga erishiladi.

Masalan o'quvchilarga ro'lli o'yin shaklida Tarbiya darslarida kasblarga yo'naltiruvchi “ Kim bo'lsam ekan” mavzusi doirasida ularga “Imitation” (Taqlid orqali ko'nikma hosil qilish) usuli orqali prokuror, sudya, advokat, Ichki ishlar xodimi, inspektor singari kasb egalari, ularning huquq va majburiyatlarini tushintirib unga taqlid qilish orqali Davlatimiz va uning organlariga hurmat hissini va Vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish mumkin.

Ta'limda taqlidning ahamiyati shundaki: Taqlid ko'nikmalarni rivojlantirishning muhim jihati hisoblanadi, chunki u atrofimizdagilarni kuzatib, yangi narsalarni tez va samarali o'rganishga imkon beradi. Aksariyat bolalar ota-onalar, g'amxo'rlik qiluvchilar, aka-uka va tengdoshlarning bunday xatti-harakatlarini kuzatish orqali yaxshi- yomon, odobli- odobsiz, qonuniy- noqonuniy singari ko'nikmalarni o'rganadilar. Shuningdek , Tarbiya darsligidagi “Men fuqaroman” mavzusida jamiyatimizda fuqaro tushunchasi va uning huquq va majburiyatlari, oila, jamiyat, Davlat oldidagi burch va mas'uliyatlari singdirilib borilishi orqali boshlang'ich sinf o'quvchilari ongida fuqarolik tarbiya asoslari o'rgatiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarning huquqiy madaniyati bu uning o'z huquq va majburiyatlarini bilishi, tushunishi va to'g'ri anglashi, va bulardan amaliy faoliyatida foydalanishidir. Talabalar huquqiy madaniyatining asosiy elementlaridan biri-bu huquqiy faollikdir. Huquqiy faoliyat yoshlarning huquqiy savodxonlik, huquq va qonunlarga bo'lgan hurmatiga tayanadi. Kichik sinf o'quvchilarining bilish faoliyati bilan birgalikda amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirish orqali huquqiy tasavvur, ong va huquqiy madaniyat shakllanib boradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'rtasida vatanga xizmat qilish, hammaning qonun oldida tengligi, atrof-muhitni muhofaza qilish, madaniy me'roslarni asrab avaylash jamoat joylarida o'zini tutish, o'zgaralar huquqlarini hurmat qilish, yo'l-harakat qoidalariga rioya qilish, inson huquqlarini hurmat qilish va jamiyatdagi boshqa shaxslarning huquqlarini himoya qilish singari huquqiy tarbiyani shakllantirishda Tarbiya darslarida "Barcha insonlar qonun oldida teng", "Jamoat joylarida o'zini tutish", "Munosib farzand" mavzularida o'qituvchi tomonidan loyihaga asoslangan talim texnologiyasini qo'llash orqali o'quvchilarning ijodiy faoliyati rivojlanadi. Bu orqali bolaga zamonaviy ta'lim tizimining asosiy sharti hisoblangan, bolalarning har tomonlama rivojlanishiga qaratilgan "4K modeli" ni o'zida mujassamlashtirilgan talim beriladi. Yosh va ma'lumot bilan ishlash sifatlarini hisobga olgan holda 7-12 yoshli bolalar loyiha tuzishda qiynalishi mumkin va bu masalaning yechimi sifatida o'qituvchi bolalar guruhiga yoshiga mos ravishda jamiyatdagi ayrim masalalarni savol tariqasida berishi, bolalar guruhi esa, masalaga yechim topishi va buni hayotiy vaziyatlarda qo'llash uchun takliflar berishi kerakligini tushuntirishi lozim. Masalan: "Bola maktabda sho'xlik qilib boshqa bolalar ustidan kuldi...", "Jamoat transportida o'rindiqlarga chizib tashladi...", "Chiqindilarni atrofga sohib atrof muhitning ifloslanishini keltirib chiqardi..." singari masalalarni bolalar guruhiga berib ularda "4K modeli" ning asosiy kompetensiyalarini rivojlantirishga erishish mumkin.

Bolalar o'z-aro guruhda ishlash orqali bir birlariga ta'sir etish orqali "**Kollaboratsiya**" - bu o'quvchilarga hamkorlik qilish, samarali fikr almashish va o'zaro qo'llab-quvvatlash ko'nikmalarini o'rganishga ko'maklashadi. "**Kommunikativlik**": o'quvchilarning boshqalar bilan muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. O'quvchilar o'z fikrlarini aniq va ravshan ifodalashga, suhbatdoshni tinglashga va tushunishga, ma'lumotni yetkazishda til vositalaridan unumli foydalanishga o'rganadilar. "**Kreativ fikrlash**": Masalalarga ijobiy yechim topishga urinish va ularni tasniflash ijodiy fikrlashni va yangilik qilish qobiliyatini rivojlantiradi. O'quvchilar o'z maqsadlariga erishish uchun yangi yondashuvlarni qo'llashni o'rganadilar, innovatsion yechimlarni ishlab chiqadilar va ijodiy muammolarni hal qilish ko'nikmalariga ega bo'ladilar. "**Kritik fikrlash**" -ushbu metodologiya o'quvchilarningning masalani tanqidiy baholash, o'z fikri va mulohazalarini shakllantirish ko'nikmalarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. O'quvchilar muammolarga analitik nuqtayi nazardan yondashishni o'rganadilar va mantiqiy fikrlash asosida o'z nuqtayi nazarini shakllantiradilar. [3]

Shu o'rinda pedagog olimlar L.S. Vigotskiy va J. Dyuning quyidagi fikrlarini eslatib o'tish muhim, faqat tasavvur va ijodiy fantaziya orqaligina bola to'la tajribaga, rivojlanishga ega bo'lishi mumkin. Aynan tasavvur va fantaziyadan ijodiy faoliyat boshlanadi. Shunday ekan boshlang'ich sinf o'quvchilarda huquqiy ong va madaniyatni shakllantirishda, aynan tarbiya fani darslarida Loyihaga asoslangan ta'lim texnologiyasidan unumli foydalanish samarali natija ko'rsata oladi.

Aynan o'quv loyihasining shu ko'rinishlari boshlang'ich sinf o'quvchilarining ilk huquqiy savodxonligini shakllantirib, huquqiy jarayonlarni tadqiq etish orqali kelajakda faol fuqarolik pozitsiyasini ularda shakllantirishga asos bo'la oladi.

Huquq jamiyatdagi barcha munosabatlarni tartibga solar ekan, huquqiy xulq-atvor va faoliyat kelajakda respublikamizning siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayotini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. U yoshlarimizga o'zlarining mehnat, dam olish, siyosiy va madaniy hayotdagi shaxsiy huquqlari, qiziqishlarini qondirishda qonunlardan foydalanishga imkon yaratadi. Aynan shu jihatlarni o'quvchilarda boshlang'ich sinflarda shakllantirishda o'quv loyiha metodlaridan foydalanish asnosida ko'pgina pedagogik muammolar yechimi bo'la oladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida huquqiy tushunchalarni shakllantirish uzluksiz ta'lim tizimining keyingi bosqichlarida uzviy ravishda olib borilishi natijasida o'quvchilarda huquqiy madaniyat shakllanadi va muntazam rivojlanib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jumayeva Feruza Faxriddinovna Таълим ва инновацион тадқиқотлар (2022 йил № 9) ISSN 2181-1709 (P) 218 Education and innovative research 2022 y. №9
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi PF-5618-sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/4149765>
3. www.yuz.uz/uz/news/boshlangich-sinf-darsliklarida-4k-modeliga-asoslangan--innovatsion-yondashuv-taqdim-etildi
4. Abdullaeva B.S., Xoliqov A.A., Farsaxanova D.R., Muhammadiyeva S.V., Sheranova M.B. Umumiy pedagogika. Toshkent: Innovatsiya-Ziyo. 2021
5. Abu Nasr Forobiy "Fozil odamlar shahri"
6. B.X.Xodjajev umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti «Sano-standart» nashriyoti Toshkent – 2017

HUQUQIY MADANIYATNI OSHIRISHDA ZAMONIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING TUTGAN O'RNI

Mirvali Donayevich Raximov

Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi bosh mutaxassisi. Toshkent

Buyuk jadidshunos bobomiz Mahmudxo'ja Behbudiy "Haq olinur-berilmas" deb o'zlarining fikrlarini o'z hayotlik davrida e'tirof etib o'tgan. Haq so'ziga urg'u berar ekan avvalo, bunda huquq, ozodlik, mustaqillik, erkinlik tushunchalari tilga olinganligining yorqin misolidir. O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini qo'lga kiritgunga qadar ko'plab ilm darg'alari o'zlarining asarlarida ushbu shior kabi xalqni mustaqillikka davat etib kelganlar. Aynan xalqni savodli qilib, ularni huquq va erkinliklarini anglab yetishga bevosita o'zlarining beminnat xissalarini qo'shishgan shaxslar bular pedagoglardir. Ular yosh avlodni ilm-marifat yo'lida harf o'rgatib, savodini chiqarib, o'zlarining bilim va ma'rifatlarini xalqning farzandlariga ziyo tarqatgan. Aynan ana shunday jonkuyar, ma'rifatparvar bobolarimizning sa'y – harakatlari natijasi o'laroq davlatimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritish yo'lida birlashib, ezgu ishni amalga oshirishgan. O'tgan yillar davomida ham O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini dunyo hamjamiyatiga namoyon etar ekan, avvalo, o'z davlatchiligi, uning huquqiy asoslari, davlatlararo o'zaro hamkorlik munosabatlarining yo'lga qo'yilganligi, diplomatik aloqalarining o'rnatilganligi, xalqaro maydonda ilm-fanning rivojiga munosib xissa qo'shayotgan yosh avlodni tarbiyalab chiqarilayotganining tag zamirida ham o'zining samarali mehnati turgan pedagoglarimizning o'zni beqiyos ekanligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan maktab ta'limida yoki o'rta maxsus ta'lim muassasalarida yoki bo'lmasa oliy ta'lim muassasalarida o'quvchi yoshlarga huquqiy tarbiya berib kelayotgan hamda ularning huquqiy madaniyatini oshishiga munosib hissasini qo'shayotgan pedagoglarimiz zamonaviy ilm-fan yutuqlaridan foydalangan holda dars mashg'ulotlarini o'tib kelmoqda. Xush hozirgi kunda huquqiy fanlar zamon talabiga mos ravishda o'tilmoqdam?, o'quvchilarning huquqiy madaniyatini oshirishda huquqshunos pedagoglarimizning salohiyati yetarli? , huquqiy fanlar bo'yicha dars beradigan pedagoglar uchun oliy ta'lim muassasalari qoniqarli darajadami? kabi savollar ushbu sohada ya'ni huquqshunos pedagoglarning sifat darajasini aniqlashda yordam beradi. Hozirgi kunda huquqshunos pedagoglarni tayyorlaydigan tayanch pedagog institutlari mavjud emas. Ushbu sohani isloh etish yuzasidan ham amaliy ham qonuniy asoslarni yaratib, jamiyatda o'quvchi yoshlarni huquqiy madaniyatini oshirishga o'zining munosib hissasini qo'shadigan huquqshunos pedagoglarni tayyorlaydigan mutaxassislik yo'nalishlarini yo'lga qo'yish orqali amalda mavjud muammolarni bartaraf etish lozim. Bundan tashqari maxsus huquqiy fanlarga ixtisoslashtirilgan maktablar faoliyatini yo'lga qo'yish orqali mavjud muammolarni bartaraf etish imkonini beradi. "Maktab-litsey-texnikum-institut" g'oyasini yaratish orqali huquqshunos pedagoglarni tayyorlash tizimini yo'lga qo'yishimiz va buning natijasi o'laroq jamiyat manfaati uchun xizmat qiladigan huquqshunos pedagog kadrlarni shakllantirib olishimiz mumkin. Ko'plab muammolarning asl negiziga qaraydigan bo'lsak, fuqarolarda huquqiy ongning yo'qligi, yoki yetarli darajada huquqiy madaniyatni shakllanmaganligi natijasida huquqbuzarliklarni sodir etganini guvohi bo'lamiz. Jumladan voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklarni sodir etilishi yoki ularning son jihatdan oshib borishiga ham aynan maktab darsliklarida huquqiy fanlarni yetarli miqdorda o'tilmasligi, ya'ni dars soatining kamligi, darslar mutaxassis o'qituvchilar tomonidan o'tilmasligi yoki yetarli darajadagi pedagogik tajribasi mavjud bo'lmagan pedagog o'qituvchilarning dars o'tishi o'sha maktab o'quvchilarining huquqiy madaniyatida ularning xatti-harakatlarida yaqqol misol bo'ladi. Har bir fuqaro o'zining fuqarolik burch va majburiyatini anglab yetsa, unga o'z vaqtida amal qilsa yoki bajarsa, jamiyatda huquqbuzarliklar son jihatdan kamayadi. Shu o'rinda yuqoridagi mavjud muammolarni sanab o'tish bilan birgalikda, ularning yechim yo'lini topishimiz zarurdir. Zamonaviy tajribalarni amaliyotga joriy etish hamda o'quvchilarni zamonaviy huquqiy pedagogik texnologiyalar orqali dars o'tishni yo'lga qo'yish, xalqaro tan olingan pedagogik tajribalarni o'zining pedagogik faoliyatida amalda qo'llay oladigan pedagogik jamoani yaratishimiz orqali mavjud muammolarga o'z vaqtida barham berishimiz mumkinligini anglab olishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5987-sonli "O'zbekiston Respublikasida yuridik ta'lim va fanni tubdan takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni. 29.04.2020-yil.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
3. <https://edu.pedmarkaz.uz> internet sayti

DÚNYALÍQ MÁMLEKET HÁM DIN TÚSINIǵI, TARIYXÍ HÁM ILIMIY JANTASÍWLAR

N.T.Orınbetov

Ájiniyaz atındaǵı Nókis MPI docent w.w.a. p.i.f.d (PhD). Nókis

Sh.A.Atamuratov

Ájiniyaz atındaǵı Nókis MPI 4-kurs talabası. Nókis

Házirgi waqıtta dúnya boylap 195 mámleketti qamtıp alǵan bes mırnan aslam din hám túrli konfessiylar bar bolıp, olardıń yarımınan kóbi dúnyalıq mámleketler bolıp tabıladı [1]. Dúnyalıq kóbinese zamanagóy demokratiyalıq jámiyetlerdiń iskerligi hám progressiv rawajlanıwınıń tiykarǵı hám zárúrli principi esaplanadı. Birden dúnyalıqtıń áhmiyetin ańlap bolmaydı, bul onıń din menen ózara mánisin tereń túsiniw hám demokratiyalıq ózgerisler arqalı mámleket rawajlanıwınıń real kelesheklerin seziniw menen júzege keledi.

Áyyemgi mámleketlerdiń qalıplesiwi hám rawajlanıwı dúnyalıq hám diniy hákimiyatlarıń parıqlanıwı hám ajralıwı menen birge bolǵan.

Mámlekettiń dúnyalıq ideyaları XVIII-XIX ásirlerde Franciya hám AQShta rásmiy qalıplese basladı hám XX ásirde ámeliyatta keń qollanıla baslandı.

XX ásirge kelip puqaralıq jámiyetiniń rawajlanıwı menen dúnyalıq mámleket koncepciyası kóplegen mámleketler konstituciyasında orın aldı. Máselen, Germaniya, buringı SSSR, Franciya, Yaponiya, Hindistan h.t.b. XX ásir aqırında payda bolǵan kóplegen dúnya mámleketleri de dúnyalıq mámleket jolın tańladı.

Dúnya mámleketleriniń kópshiligi búgin de dúnyalıq joldı tańlar eken, dúnyalıq mámleket hám onıń mazmunın kórip shıǵamız.

Dúnyalıq mámleket - bul rásmiy mámleket dinsiz isleytuǵın hám hesh qanday isenim sistemasın májburiy yamasa basqalarınan artıǵıraq dep tastıyıqlamaytuǵın húkimet. Dúnyalıq mámlekette din, onıń táliymatları, diniy shólkemlerdiń mámleket strukturalarına, mámleket shólkemleri hám lawazımlı shaxslardıń iskerligine, mámleket strukturaları sistemasına hám de mámleketlik jumıslarınıń basqa tarawlarına tásir kórsetiwine jol qoyılmaydı hám ol tómendegi qaǵıydalardı keltirip shıǵaradı:

a) mámleket shaxstıń diniy qaraları yamasa jeke diniy tiyisliligin anıqlawǵa aralasıwdan ózin shekleydi;

b) diniy shólkemlerge mámleket hákimiyatı shólkemleri, mámleket mákemeleri yamasa jergilikli mámleket hákimiyatı shólkemleriniń wazıypaların júklemeydi;

c) mámleketlik bilimlendiriw mákemelerinde dúnyalıq tálim beriledi;

d) mámleket hám jergilikli mámleket hákimiyatı shólkemleriniń iskerligi ǵalabalıq diniy dástúrler hám dástúrler menen baylanıslı bolmaydı;

e) mámleket hám jergilikli mámleket hákimiyatı shólkemleriniń administraciyasına, mámleket xızmetkerlerine, sonday-aq áskeriy xızmetkerlerge óz lawazım poziciyasınan paydalanıp, adamlardıń hár qanday arnawlı bir dinge bolǵan qaralarına tásir kórsetiwine qadaǵan etiledi.

Dúnyalıq mámleket ushın perspektivalı múnásibet forması - mámleketti dinnen ajratılǵanlıǵı esaplanadı. Bunday mámleketler qatarına AQSh, Franciya, Rossiya Federaciyası, Bolgariya mámleketleri qatarında Ózbekstan hám basqa mámleketler misal bola aladı.

Dúnyalıq mámleketlerde mámleket dini bolmasa da, ornatılǵan mámleket dininiń joq ekenligi mámlekettiń pútkilley dúnyalıq ekenligin ańlatpaydı. Ózlerin dúnyalıq poziciyadan alıp qaraytuǵın mámleketlerde ol yaki bul dinniń tásiiri oǵada kúshli bolıwı da múmkin.

Tariyxıy tárepten mámleketti sekulyarlastırıp processı ádette diniy erkinlik beriw, mámleket dinlerin biykarlaw, din ushın sarıplanatuǵın mámleket qarjıların toqtatıw, huqıqıy sistemanı diniy qadaǵalawdan azat etiw, tálim sistemasın azat etiw, dinin ózgeritken yamasa dinnen waz keshken puqaralardıń huqıqların húrmet etiw hám siyasiy basshılardıń diniy isenimlerine qaramastan húkimetke keliwine múmkinshilik beriw sıyaqlı túrli tendeciyalarda jetip keldi.

Alım A. V. Malashenko dúnyalıq mámlekettiń 3 belgisin atap ótedi: 1) diniy birlespelerdiń mámleketten ajratılıwı; 2) dinniń siyasattan úziliwi; 3) din hárbir puqaraniń jeke máselesi [2, 27-b].

Al alım Yu I. Stecovskiy bolsa bul máselege keńirek jantasadı hám dúnyalıq mámlekettiń tómendegi belgilerin belgileydi:

1) qandayda bir rásmiy (mámleket) dininiń joq ekenligi;

2) hesh qanday din májburiy yamasa artıq dep tán alınbaydı;

3) diniy qaǵıydalar huqıq derekleri bola almaslıǵı;

4) mámleket tálim hám tárbiya sisteması dúnyalıq ózgeshelikke iye bolıp, dinge ol yamasa bul múnásibetti qáliplestiriw maqsetin gózlemeydi;

5) hújdan erkinligi, diniy isenimlerdi tańlaw máseleleri - insanniń ruwxıy erkinligi hám jeke turmısı tarawı bolıp, oǵan mámleket te, jeke adamlar da aralasıwǵa haqılı emes [3, 433-434-b].

Qaǵıydaǵa kóre, dúnyalıqtıń eki tiykarǵı túri bar – Francuz laicizmi hám anglo-sakson laicizmi, birinshi náwbette, Amerikalıq dúnyalıq, bul óziniń social hám social-siyasiy kórinislerinde Francuz laicizminen “jumsaq” dep shamalaw múmkin.

Dúnyalıq mámleket modelleriniń tiykarǵı túrлерinen klassik (Franciya, Qazaqstan), indifferent (biyparıq) (AQSh, Yaponiya), preferencialdı (jeńillikli) (Italiya, Izrail, Germaniya, Polsha, Ispaniya) atap ótiw orınlı [4].

Soǵan qaramastan dúnyalıq mámleket jámiyetinde din hám onıń atqaratuǵın wazıypaları zárúr. Dúnyalıq mámleketlerde din mámleket siyasatında roli sheklengen menen jámiyetten pútkilley qısıp shıǵarıw imkansız, sebebi din jámiyette málim bir funkciyalardı atqaradı.

Paydalanılǵan ádebiyatlar:

1. http://pravo.mgimo.ru/sites/default/files/pdf/13_shandybinam.pdf

2. Малашенко А. В. Христианство и ислам в России: диалог только начинается // Межрелигиозный мир и согласие как условие мирного будущего народов Северного Кавказа: Материалы международной конференции (Пятигорск. 18-19 февраля 1998 г.). М., 1999. С 27.

3. Стецовский Ю. И. Право на свободу и личную неприкосновенность: нормы и действительность. М., 2000. С 433-434.

4. Жагипаров М. Опыт зарубежных стран как светских государств. К., 2021.

TALABA JASLARDI KASIPKE TAYARLAWDIN AHMIYETI

Jamila Djolmurzaevna Utegenova

Ajiniyaz atındaǵı NókisMPI Milliy ideya, ruwxıylıq tiykarları hám huqıq tálimi kafedrası oqıtıwshısı. PhD. Nókis

Joqarı tálimniń bakalavriat hám magistratura basqıshlarında oqıtılatuǵın pánler hám olarǵa tiyisli oqıw ádebiyatlarınıń mazmun hám maqseti oǵada tereń, ilimiy-ámeliy joqarı sıpat dárejesinde bolıwı talabalardı kásiplik iskerlikke tayarlawda ayırıqsha orında turadı.

Joqarǵı oqıw orınlarında mektepke shekemgi tálim mekemeleri ushın tayarlawda aldınǵı tájiriyeber sonni kórsetpekte, ilimiy jaqtan tiykarlangan iskerlik dizimin maqsetke muwapıq rawishte turmısqa en jaydırıw jaqsı nátiyje beredi. Keyingi jıllarda balalar baqshası ushın usınıs etilgen baǵdarlamalarda balalarǵa milliylikti, estetik kónlikpelerdi jetilistiriwge ádewir dárejede itibar berilgen. Balalar baqshasında islep atırǵan tárbiyashılar birinshi gezekte milliy estetik tárbiya tiykarların tereń anlaǵan xámde talapshań iskerlikke psixologik jaqtan tayar bolıwı kerek. Sonda ǵana, ol mektepke shekemgi tárbiya mekemelerinde balalardı milliy miyraslarımız tiykarında hám estetikalıq jaqtan tárbiyalawda ámelge asıra aladı. Ustaz hám tárbiyashılar balalar baqshasında hár bir kórgizbe qurallar, oyınshıq hám ayıtılatuǵın ertek hám balalar qosıqları milliy qadıratlarımız túsiniǵın seziw hám gózzalıq tuyǵusın oyatıwǵa xızmet etiwı kerekligin názerde tutıwı kerek.

Bolajaq pedagoglardı milliy balalar baqshasında jumıs islewge tayarlawda psixologik-pedagogik pánlerdi hár tárepleme kórip shıǵıw úlken áhmiyetke iye. Joqarı oqıw orınlarında mektepke shekemgi tárbiya fakultetleri oqıw rejesine qaray psixologiya hám pedagogikaǵa tiyisli pánler «mektepke shekemgi tárbiya pedagogikası» «balalar psixologiyası» «Pedagogika tariyxı» talabalardı kásiplik xızmetke tayarlawda tiykarǵı orında turadı. Sonıń ishinde talabalardı pedagogik tájiriyeber ótkeriwlerde pánlerde tutilǵan hár qanday tálim tárbiya hám ámeliyat da ob'ektiv rawishte pedagogikalıq teoriyaǵa tiykarlanadı.

Xalq pedagogikası materiallarınan paydalanıw tárbiya teoriyası kursı talabalardı pedagogika tariyxı hám teoriyasın úyretiwdi ulıwmalastırıwda jaqsı nátiyjeler beredi. Bul pánlerdi ótiwde ilimiy metodologiya teoriyası hám usılların tálim-tárbiya processine muwapıq tárizde alıp kiriw paydadan shette qalmaydı. Usıǵan baylanıslı pedagog ustazlar pedagogika hám psixologiya pánleri boyınsha tómendegilerdi biliwleri tiyis. Mektepke shekemgi tárbiya pedagogikası, úlkenler hám balalar psixologiyası, mektepke shekemgi tárbiya hám ulıwma tariyxı, arnawlı kurs, pedagogikalıq sheberliq hám basqa pánlerdiń tiykarı.

Xalq pedagogikasınıń-bala shaxsn rawajlandırıwdaǵı áhmiyeti;

- Ózbekstanda mektepke shekemgi tárbiyanın rawajlanıwı-

-bala shaxsın rawajlandırıwda pedagog tárbiyashılardıń áhmiyeti, olarǵa bolǵan pedagogikalıq talaplar mektepke shekemgi tárbiyanın rawajlandırıwda tiyisli bolǵan h6jjetler:

-balaǵa ruwxıy-pedagogik tásir etiwshi usıllar;

-mektepke shekemgi tálim mekemeleri ushın tárbiya dástúri:

-balalacr baqshasında kishi orta, úlken hám tayarlaw toparlarında alıp barılatuǵın shólkemlestiriw metodikalıq usıllar

-sabaq shınıǵıw hám onı ótkeriw usılları;

-pedagogikalıq jumıslardı rejelestiriw;

-tálim tárbiya islerinde milliy miyraslarımızdı paydalanıw:

-pedagog tárbiyashılardıń shólkemleskenlik hám tájiriyeber jumıslarında sheberligin arttırıw;

-mektepke shekemgi jastaǵı balalardıń psixologiyasınıń jaqsı biw;

-ilimiy metodik ádebiyatlarǵa talıqlaw jasaw;

-aldınǵı pedagogikalıq tájiriyeberlerden paydalanıw;

-balalar menen jeke islesiw;

Ata-analar menen hár qıylı temada tárbiyalıq isler ótkeriw;

Óz pedagaogikalıq xızmetin talıqlaw, kemshiliklerin tabıw hám olardı d6zetiw;

-balalarda milliy miyraslarımızǵa m6nasibetin tayarlaw;

-balalarda milletler aralıq doslıq baylanıs mádeniyatın jetilistiriw;

Talabalar dıqqatın tek ǵana usınday máselelerge teoriyalıq jaqtan t6sinik berip qoymastan, ámeliy sabaq hám óz betinshe jumıslardı orınlaw payıtında qaratıw maqul dep oylaymız. Oytkeni hár bir talaba óz 6stinde izlenip, óz bilimn óz betinshe qollanıwǵa úyrenip barıwı tiyis.

ЎҚУВЧИЛАРИНИНГ ҲУҚУҚИЙ МАДАНИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МАСАЛАЛАРИ

Арзиева Бахитгул Имаметдиновна

Ажсиниёз номидаги НукусДПИ, мустақил тадқиқотчи. Нукус

Бугун жаҳонда кечаётган мураккаб ўзгаришлар инсон ҳуқуқларини ҳимоя қилиш ҳамда қонунийликни таъминлашни тақозо этмоқда. Шунга кўра ривожланган мамлакатлар ва Ўзбекистон Республикасида ҳуқуқий таълим ва тарбиянинг назарий амалий йўналишларини ривожлантиришга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Ўқувчиларнинг ижтимоий, иқтисодий, сиёсий ва маънавий-ахлоқий жиҳатдан ривожлантириш жараёнида уларнинг ҳуқуқий билимлари ва ҳуқуқий маданиятини ривожлантиришга ҳам алоҳида эътибор қаратишлари талаб қилинмоқда. Ҳар қандай янгилашларнинг мазмун- моҳиятини инсоният қонуниятлар асосида тушиниб яшайди ва ҳаёт кечиради. Зеро, бу ёруғ оламга келган ҳар бир одамзот турли ўзгариш ва янгилашлар сари интилаверади. Айни пайтда халқлар тарихида ўзига хос туб янгилаш даврлари борки, бундай замонларда муайян миллат даҳоси, унинг ўз салоҳиятини намоён этишга интилиши, яратувчанлик фаолияти энг юксак чўққиларга кўтарилади.

Айни бир халқ салоҳиятининг улкан натижаси бўлган бу каби оламшумул ютуқлар эса, инсоният тарихининг ёрқин саҳифаларига айланади, дунё цивилизацияси тараққиётига катта туртки беради.

Ер юзидаги баъзи халқларнинг бундай юксак кўтарилиш ва тараққиёт замонларини ўзига хос Уйғониш, яъни Ренессанс даври, деб аталишининг сабаби ана шунда.[1;5]

Ҳақиқатдан ҳам, бу даврнинг одамларини бир мақсад йўлида бирлаштирадиган ва сафарбар қиладиган ўз ғояси, тараққиёт тамойиллари борлиги, бу ҳар қандай инсонга ўз ҳуқуқий маданиятининг ривожлантириш каби зарурликни талаб этади.

Таъкидлаш жоизки, 73 йил аввал қабул қилинган Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси дунёда демократия ва инсонпарварлик тамойиллари қарор топтириш йўлида имкониятлар очгани ва бу борада инсон ҳуқуқлари, эркинликлари демократик жамиятнинг энг олий қадирияти сифатида намоён бўлди. Бу борада фуқороларимизнинг эмин-эркин яшаш, уй-жой ва ер мулкка эга бўлиш, соғлиқни сақлаш, билим олиш каби табиий ҳуқуқ ва эркинликларини таъминлаш соҳасида катта ислоҳотлар амалга оширилмоқда.

Президентимиз Ш.М.Мирзиёевнинг БМТ бош Ассамблеясига қилган мурожатида ҳам Инсон ҳуқуқлари бўйича кенгашга аъзо бўлиш масаласини илгари суриш ниятида эканлиги, айни пайтда Ёшлар ҳуқуқлари бўйича конвенцияси лойиҳаси бўйича ишлар олиб борилаётганлиги таҳсинга лойиқ.[2;4]

Шундай экан аҳолининг ҳуқуқий маданиятини юксалтириш ва ҳуқуқий маданиятини яхшилашга қаратилган ишларни давлат сиёсатининг асосий йўналишларидан бири сифатида тан олиш зарур.

Афсуски, бугинги кунда барчамиз мазкур ижобий жараёнга тўсқинлик қиладиган мураккаб ва зиддиятли тенденциялар мавжудлигига гувоҳ бўлиб турибмиз.

Республикамызда ижтимоий-иқтисодий, сиёсий, ҳуқуқий, маънавий ва маданий соҳаларда амалга оширилаётган ислоҳотлар таълим жараёни ва кадрлар тайёрлаш тизимини ҳам тубдан янгилаш ва ривожлантиришни талаб этади. Шу боисдан таълим тизимини замон талаблари даражасида ва эришилган тажрибалар асосида ривожлантириш орқали ўсиб келаётган ёш авлодни жамият ҳаётида фаол иштирок этадиган, ҳар томонлама етук ва юксак маънавиятли, комил инсонлар этиб тарбиялаш ва бу борада ҳуқуқий маданиятли шахсларни етиштириш давлатимиз сиёсатининг устувор йўналишларидан ҳисобланади.

Маълумки, ҳуқуқий давлатни барпо этишда қатнашувчи шахс, ҳуқуқ ва эркинликларини билиб олмасдан, демократиянинг туб маъносини англолмайди. Чунки демократия ҳуқуқий давлатнинг таркибий қисмидир. Ҳуқуқий маданият даслаб оилада, боғчада ва мактабда бошланади. Лекин ҳуқуқий маданият инсон ҳаёти давомида доимий равишда давом этадиган жараёндир. Ҳуқуқий давлат қураётган эканмиз фуқороларларнинг қонунларни билиш, қонунга

итоаткорлик, ҳуқуқий онг ва ҳуқуқий маданиятини ривожлантириш ҳар биримизнинг бурчимиздир. Бу борада ҳуқуқий фан ўқитувчилари, ҳуқуқни муҳофаза қилиш органлари ва оммавий ахборот воситаларининг хизматлари катта бўлади ва улар зиммасига маъсулиятли вазибаларни юклайди.

Маълумки, юқори синф ўқувчилари шахнинг ҳар томонлама ривожланишида энг интенсив давр ҳисобланади. Асосан, мактаб ёшдаги боланинг улкан имкониятларини амалга оширишда максимал самарадорликка фақат ўқув ва тарбияда қўлланиладиган метод ва шакллар мазкур ёшнинг психофизиологик хусусиятларига мувофиқ бўлгандагина эришиш мумкин. Шундан келиб чиқиб, умумий ўрта таълим мактаблари ўқувчиларининг ҳуқуқий маданиятини ривожлантиришда синф раҳбарларининг ролини ошириш муаммоси долзарб ҳисобланади.

Умумий ўрта таълим мактаблари ўқувчиларининг ҳуқуқий маданиятини ривожлантириш масаласи ўзбек, рус педагоглари, психологлари ва ҳуқуқшунослари, социологлари ва файласуфлари томонидан тадқиқ қилинган. Масалан, Шарқ алломалари ўз илмий меросида ўқувчиларининг ҳуқуқий маданиятини шакллантириш масаласи атрофлича ўрганганлар. Йирик Шарқ алломаларидан Амир Тимур, Муҳаммад Мусо ал-Хоразмий, Нақишбаний, Хужа Аҳмад Яссавий, Абдулла Авлоний, Қашқарий, Замахшарий, А.Навоий, Юсуф Хос Ҳожиб, Абу Наср Фаробий, Абу Али Ибн Сино, Абу Райҳон Беруний, Кайковус ва Бердақ, Ажиниёз боболаримиз томонидан жамиятда болалар ва уларни тарбиялаш йўллари, таълим тарбия бериш орқали ўқувчиларининг ҳуқуқий салоҳиятини ривожлантириш масаласининг долзарблиги билан белгиланади.

Рус педагог олимларидан О.В.Криченко, Е.А.Россолова, Н.М.Савченко, М.Г.Гасанов, М.Ю.Саникова, С.В.Беликова, Н.Е.Жданова, С.А.Хасанова сингари тадқиқотчилар ўқувчиларининг ҳуқуқий маданиятини ривожлантириш масаласига ўз фикрларини билдирганлар.

Ўзбек педагогларида Н.У.Маҳкамова, файласуфларидан М.А.Атавуллаев, Б.У.Маматюсупов, Д.С.Сағдуллаева, М.Х. Усмонбоевалар, ҳуқуқшунослардан Х.Т.Маматов, Э.О.Кадиров, Т.Убайдулла, О.Т.Насиритдинова, А.А.Ҳамраев, Р.Э. Турдибоевалар, социологлардан Н.Н.Ҳасанов, Г.Б.Ўразалиевалар ва Қорақалпоғистонли файласуф олим Ж.Базарбаев, педагог олимлардан О.Алеёв, А.Пазылов, Т.Утебаев, Т.Қудайбергенова, Е.Тлеўовларнинг ўқувчиларининг ҳуқуқий маданиятини ривожлантириш масаласига доир тадқиқотлари бизнинг республикамизда амалга оширилган ишлардир.

Baspana huqıqı-málim bir mámleket tárepinen óziniń puqaralıǵına iye bolǵan mámlekette yaki turaqli jasaw jerinde siyasiy kózqarasları ushin quwdalangán qanday da bir shaxsqı jasiriniw imkaniyatın beriw hám bunday shaxsti uslap bermewden ibarat. Qashqınlar-milleti, diniy inanımı, siyasiy kózqarası ushin quwdalangán, áskeriy háreketler yaki basqa ayriqsha jaǵdaylar nátiyjesinde turaqli jasaw kelgen mámlekette taslap shıqqan shaxslar bolıp tabiladi.

Májburıy kóshirilgenler-áskeriy háreketler ótkiziliwi, jámiyetlik tártiptiń ǵalaba buziliwi hám basqa insan huqıqlarınıń buziliwi nátiyjesinde milletı, tili, siyasiy hám diniy inanımı boyınsha jábirleniwi hám quwdalanıwınan óz mámleket shegarasınan turaqli jasaw orınların taslap shıqqan shaxslar bolıp tabiladi.

BMSH-tinishliqti hám xalıqaralıq qawipsizlikti qollap-quwatlaw, mámleketler aralıq birge islesiwdi rawaj-landiriw maqsetinde dúzilgen universal shólkem. BMSH Ustavi San-Frantsiskoda ótkizilgen konferentsiyada imzalanıp, qort-jıldan kúshke kirgen. BMSH Ustavi barlıq mámleketler moyınlawı shárt bolǵan birden-bir xalıqaralıq hújjet bolıp tabiladi. BMSH Ustaviniń áhmiyeti tek oniń tinishliqti támiyinlewshi shólke-miniń háreketin retlsetiriwshi hújjetliginde ǵana emes, al barlıq mámleketler ushin teń bolǵan jámáá qorgaw sistemasiniń jaratiliwında tiykar bolıp xızmet etiwı hám mámleketler tárepinen alıp barılatuǵın áskeriy, siyasiy, ekonomikalıq, ekologiyalıq, insaniylik tarawlarındaǵı jumislariń belgilewshi ózine tán kodeks ekenliginde de. BMSH Ustavi kóleminde kóp tárepleme kelisim hám shártnamalardıń kóp tarawlı sisteması payda bolǵan. BMSH sistemasiniń tiykarǵı sebep hám maqsetleri oniń Ustavi kirisiwinde tómenдеgishe kórsetilgen Biz, Birlesken Milletler xalıqları tómenдеgi sheshimge keldik.

-keleshek áwladları biziń turmisimizǵa eki mártebe adamzat basına qorqınishlı baxitsizliqlar salǵan urıslardan qutqariw,

-insan huqıqları, oniń qádir-qimbatı, hayallar hám erkeklerdiń teń ligi, úlken hám kishi milletler huqıqlarınıń teń ligine isenimdi jánede bekkemlew,

-ádillik hám shártname jáne xalıqaralıq huquqtıń basqa derekлерinen kelip shıǵıwshı minnetlerge sadıqlıqtıń iske asiriliwi ushin jaǵdaylar dúziw,

-sotsiallıq rawajlanıw hám turmis sharayatlarınıń úlken azatlıq jaǵdayında jaqsılanıwına kómeklesiw maqsetinde

-sabır-qanaat penen bir-birimiz benen jaqsi qoń silar usap jasaw,

-xalıqaralıq tinishlıq hám qáwipsizlikti támiyinlew ushin birlikte háreket etiw,

-printsıplar qabıllaw hám usıllar islep shıǵıw joli menen qurallı kúshlerdi kópshiliktiń maqsetлерinen basqa jolda isletilmewin támiyinlew,

-barlıq xalıqaralıq ekonomikalıq hám sotsiallıq rawajlanıwi ushin xalıqaralıq apparatti isletiw kibi maqsetlerdi iske asiriw ushin birlikte háreket etiwge qarar ettik.

Usı tiykarda biziń kerekli túrde Óz wákilliklerin usın-ǵan húkimetlerimiz Óz wákillikleri arqalı San-Frantsiskoda jıynalıp Birlesken Milletler Shólkeminiń Ustavın tastıyqlaw arqalı Birlesken Milletler Shólkeminiń xalıqaralıq shólkem sipatında dúzilgenin tastıyqlaydı.

BMSh Ustavında onıń 6 tiykarǵı organları kórsetilgen. Olar tómendegiler:

Bas Assambleya;

Qáwipsizlik Keńesi;

Ekonomikalıq hám Sociallıq Keńes (EKOSOS);

Qáwenderlik boyınsha Keńes;

Sekretariat;

Xalıqaralıq Sud.

Bas Assambleya-suveren mámleketlerdiń haqıyqiy demokratiyalıq wákillik organi. Hár bir aǵza mámleket aymaǵınıń kólemine, xalqınıń sanına, ekonomikalıq hám áskeriy kúshine qaramastan, bir dawısqa iye. Bas Assambleyanıń áhmiyetli qararlari dawıs beriw barısında qatnasıp atırǵan mámleketlerdiń kópshiligi tárepinen qabil etiledi.

BMSh Ustavına muwapıq Qwipsizlik Keń esi uristiń aldin aliw, mámleketlerdiń tinish birge islesiwine sharayatlar jaratiwda úlken wákilliklerge iye.

XX ásirdiń ekinshi yarımında Qáwipsizlik Keń esi diqqat awdarmaǵan qandayda bir mámleketler arasındaǵı daw yaqi xalıqaralıq tinishliqti qáwip astına qoyiwshi hádiyse bolǵan emes. BMSh Ustavına muwapıq Qáwipsizlik Keń esi eki túrli yuridikaliq hújjetlerdi qabil etiwı múmkin .

Paydalangan ádebiyatlar:

1. İnsan huqıqları dúń ya júzlik dekloratsiyası. T.1948 j.
2. Xorijiy davlat Konstitutsiyaları huquqi. 2010y.
3. G.Yuldasheva, A.Gulimov İnsan huqıqları dúń ya júzlik dekloratsiyasına túsindirme. T.2008j.

FUQAROLIK JAMIYATINING HUQUQIY ASOSLARI

Baxitli Seytnazarov

*Ajiniyoz nomidagi Nukus DPI "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" yo'nalishi 2
kurs talabasi. Nukus*

Ilmiy rahbar: Baxitgul Arzieva

Mustaqilligimizning dastlabki yillaridayoq Konstitutsiyamizda nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatiga doir asosiy prinsiplarning mustahkamlab qo'yilgani barcha aholi qatlamlari manfaatlarini aks ettiradigan bunday tashkilotlar keng tarmoqlarining rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratdi.

Bugungi kunda mamlakatimizda jamiyat hayotining turli sohalarida 5100 dan ziyod nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyat yuritmoqda. Fuqarolar yig'inlari va o'zini o'zi boshqarish organlari – mahallalar soni 10 mingdan ortiqni tashkil etadi. Bular qatorida O'zbekiston xotin-qizlar qo'mitasi, "Sog'lom avlod uchun", "Nuroni" jamg'armalari, "Ijod" fondi, Nodavlat notijorat tashkilotlar milliy assotsiatsiyasi va boshqa jamoat tashkilotlarini sanab o'tish mumkin.

Fuqarolik institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlari hozirgi kunda demokratik qadriyatlar, inson huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishning muhim omiliga aylanmoqda, fuqarolarning o'z salohiyatlarini ro'yobga chiqarishi, ularning ijtimoiy, sotsial-iqtisodiy faolligi va huquqiy madaniyatini oshirish uchun sharoit yaratmoqda, jamiyatda manfaatlar muvozanatini ta'minlashga ko'maklashmoqda.

Bunday tashkilotlarning obro'si oshib, mustahkamlanib borgani sari fuqarolik jamiyati institutlarining davlat va hokimiyat tuzilmalari faoliyati ustidan ta'sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishdagi roli jamiyatimizda tobora ortib bormoqda. Bugungi kunda jamoatchilik va fuqarolik nazorati instituti jamiyatning davlat bilan o'zaro samarali aloqasini ta'minlash, odamlarning kayfiyatini, mamlakatda kechayotgan o'zgarishlarga munosabatini aniqlashning muhim vositalaridan biriga aylanmoqda.

Mamlakatimizda Ombudsman, Inson huquqlari bo'yicha milliy markaz, "Ijtimoiy fikr" jamoatchilik markazi, Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti kabi inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar va boshqa bir qator tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda. O'tgan davr mobaynida mamlakatimizni demokratik yangilash jarayonida fuqarolik institutlarining roli va ahamiyatini kuchaytirishga, fuqarolarning eng muhim sotsial-iqtisodiy muammolarini hal etishga qaratilgan 200 dan ortiq qonun hujjatlari qabul qilingani ham bu soha rivojiga bo'lgan katta e'tiborni ko'rsatadi.

Aytish kerakki, fuqarolik jamiyati institutlari tizimida nodavlat notijorat tashkilotlarini tobora rivojlantirish, ularning mustaqil ish yuritishi va chinakam mustaqilligini ta'minlash, huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, faoliyatini tashkiliy-huquqiy, moddiy-texnikaviy jihatdan qo'llab-quvvatlashni kuchaytirishga qaratilgan **"Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunning** qabul qilinishi muhim ahamiyat kasb etdi.

So'nggi yillarda **"Jamoat fondlari to'g'risida"gi, "Homiylık to'g'risida"gi qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlari rivojlanishiga ko'maklashish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori** va boshqa qator hujjatlar qabul qilindi va ular fuqarolik jamiyati institutlari ijtimoiy faolligini kuchaytirishda muhim omil vazifasini bajarmoqda.

Shuningdek, mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senati Kengashlarining **"Nodavlat notijorat tashkilotlarini, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qo'shma qarori** ham alohida ahamiyatga ega bo'ldi. O'z navbatida, Oliy Majlis huzurida Jamoat fondi hamda tarkibiga nodavlat notijorat tashkilotlari va jamoat tashkilotlarining vakolatli vakillari bilan birga deputatlar, moliyaviy tuzilmalarning mas'ul xodimlari kirgan Parlament komissiyasining tashkil qilinishi ham e'tiborga sazovordir.

Mazkur komissiya fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlashga davlat budjetidan ajratilgan moliyaviy mablag'larni yanada ochiq, oshkora, aniq yo'naltirilgan va eng muhimi, demokratik asosda taqsimlashni ta'minlash imkonini bermoqda. Bu esa nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining tashkiliy-texnikaviy va iqtisodiy negizini mustahkamlashga samarali ta'sir ko'rsatmoqda.

Yurtimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichida nodavlat notijorat tashkilotlari va boshqa fuqarolik institutlari rolini yanada kuchaytirish fuqarolik jamiyatini shakllantirish, demokratlashtirish va mamlakatimizning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi bo'yicha o'z oldimizga qo'ygan maqsadimizni ro'yobga chiqarishda hech bir mubolag'asiz hal qiluvchi omil ekanini, o'ylaymanki, kimgadir uqtirib o'tirishga zarurat bo'lmasa kerak.

Fuqarolik jamiyati institutlarining yanada rivojlanishiga erishish, amalga oshirilayotgan islohotlarimizning ochiq-oshkorligi va samaradorligini ta'minlashda, ularning rolini kuchaytirishda **"Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi Qonunning** qabul qilinishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu qonunda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarini amalga oshirish, gumanitar muammolarni hal etish, mamlakatimiz aholisi turli qatlamlarining huquq va erkinliklari, manfaatlarini himoya qilishda nodavlat notijorat tashkilotlarining davlat tuzilmalari bilan o'zaro munosabatlaridagi aniq chegaralarni belgilash va tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish kabi masalalar bo'yicha huquqiy normalar ko'zda tutilishi darkor.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish instituti – mahalla faoliyatining tashkiliy asoslarini yanada takomillashtirish, uning vazifalari ko'lamini kengaytirish, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari bilan o'zaro yaqin munosabatlarini ta'minlash alohida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan qonun hujjatlarining ijro etilishi ustidan jamiyat, fuqarolik institutlari nazoratini amalga oshirishning tizimli va samarali huquqiy mexanizmini yaratishga qaratilgan **"O'zbekiston Respublikasi jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi Qonunni** qabul qilindi. Qonunda jamoatchilik nazoratining turlari, shakllari va subyektlarini, nazorat predmetini, uni amalga oshirishning huquqiy mexanizmlarini, shuningdek, mazkur sohada amaldagi qonun hujjatlarini ijro etmagani uchun mansabdor shaxslarning javobgarligi shartlarini belgilab qo'yishdi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, Inson huquqlari sohasida milliy harakat dasturini ishlab chiqish dolzarb ahamiyatga ega. Ushbu dastur eng avvalo huquqni muhofaza qilish va nazorat organlari tomonidan inson huquq va erkinliklarining himoya qilinishini ta'minlash, jamiyatda inson huquqlari bo'yicha madaniyatni shakllantirish va shu kabi boshqa sohalarga oid qonunlarga rioya etilishi ustidan jamoatchilik monitoringini olib borishga qaratilgan chora-tadbirlarni o'zida mujassam etishi kerak.

Shular qatorida sog'liqni saqlash, atrof-muhitni muhofaza qilish, aholini, ayniqsa, yoshlarni ish bilan ta'minlash, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarni qo'llab-quvvatlash va shu kabi katta sotsial ahamiyatga molik boshqa masalalar bo'yicha muhim davlat dasturlarini amalga oshirishda nodavlat notijorat tashkilotlari ishtirokining huquqiy asosini yaratib beradigan qonun hujjatlari majmuasini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Foydalangan adabiyotlar:

1. H.Odilqoriev Konstitutsiya va fuqarolik jamiyati. Toshkent 2002y.
2. M.Mirhamidov O'zbekiston: demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurish yo'lida Toshkent-2003 y.
3. A.Saydov Fuqarolik jamiyatini shakllantirish yo'lida (Xalq so'zi) 2002 y. 11-sentyabr

SEKCIYA-3.

«QÁWIPSIZ HÁM TÍNİSHLÍQ SÚYIWSHI MÁMLEKET» PRINCIPI TIYKARÍNDAGÍ
SIYASATTÍŃ TIYKARGÍ FAKTORLARI

БУЗГУНЧИ ВА ИЖТИМОЙ ХАВФЛИ СЕКТАЛАР ТАХДИДИНИ ОЛДИНИ ОЛИШ
ХАВФСИЗЛИК ВА БАРҚАРОРЛИК ОМИЛИ СИФАТИДА

Мансур Турсунўлатович Мусаев

*Республика Маънавият ва маърифат маркази ҳузуридаги Ижтимоий-маънавий тадқиқотлар
институту бўлим бошлиғи, сиёсий фанлари доктори (DSc). Тошкент*

Бугунги кунда дунёда бузғунчи ва ижтимоий хавфли секталарни глобал миқёсда намоён бўлиши инсоният хавфсизлиги ва барқарорлигига таҳдид солмоқда. Айниқса, жахонда ғоявий-мафкуравий таҳдид сифатида ноанъанавий секталар фаолиятининг авж олиши дунё жамоатчилиги қалби ва онги ҳамда руҳиятига жиддий таъсир ўтказмоқда. Зеро, бугунги глобаллашув шиддати миллий маънавиятимиз ва менталитетимизга раҳна солувчи таҳдид ва хавф-хатарлар тобора кучаётганлигини намоён этмоқда. Бу ҳақда Президентимиз Шавкат Мирзиёев қайд этганидек: “Бугунги яшин тезлигида ўзгараётган дунё инсоният олдида, ёшлар олдида янги-янги, буюк имкониятлар очиш билан бирга, уларни илгари кўрилмаган турли ёвуз хавф-хатарларга ҳам дучор қилмоқда. Диний экстремизм, терроризм, гиёҳвандлик, одам савдоси, ноқонуний миграция, «оммавий маданият» каби таҳдидлар қанча-қанча оилалар, мамлакатлар бошига қандай оғир қулфатларни солаётганига барчамиз гувоҳ бўлмоқдамиз. Ғаразли кучлар содда, ғўр болаларни ўз ота-онасига, ўз юртига қарши қайраб, уларнинг ҳаётига, умрига зомин бўлмоқда”[1], дея таъкидлагани бежиз эмас, албатта. Бинобарин, ҳар қандай миллат ёки халқнинг ўтмиши, тарихий қадриятларига раҳна солишга интилаётган деструктив ва тоталитар секталарнинг ҳаракатлари оқибатида муайян минтақа ва ҳудуддаги хавфсизлик ва барқарорликка таҳдид солмоқда. Айрим сиёсий кучлар ўзларининг мақсадларини амалга оширишда бевосита диндан ғаразли мақсадлари йўлида фойдаланишни англаш қийин эмас. Шу ўринда, таъкидлаш жоизки, миллий маънавиятимизнинг таркибий қисми бўлган дин ва диний қадриятларимизга раҳна солиш орқали асрлар давомида шаклланган аждодлардан авлодларга ўтиб келаётган миллий ғурур, миллий ифтихор туйғусига таҳдид солиш орқали Озод ва обод ҳаёт барпо этишдек эзгу мақсадларимизга зарба берувчи хавф-хатарларни англатади. Зеро, жамият маънавиятига қарши қаратилган хавф-хатарлар ва таҳдидларнинг кучайиб бориши ўз навбатида хавфсизлик ҳамда барқарорликни таъминлаш борасидаги вазифаларни янада долзарб масалага айлантирмоқда. Ноанъанавий деструктив ва тоталитар секталар дунё миқёсида ўз таъсирини кучайтириш орқали доимий равишда ўз фаолиятини кенгайтириб боришга ҳаракат қилмоқда. Албатта, илмий доираларда бу таҳдид сифатида тобора кўпроқ эътибор қаратилди. Ноанъанавий динларнинг кенгайиши ҳар қандай мамлакатнинг диний қадриятларига раҳна солиш орқали маънавий хавфсизлигига таҳдид солади.

Дунё миқёсида деструктив ва тоталитар секталарнинг ижтимоий хавфлилигини белгиловчи омиллар қаторига “*охиратнинг яқинлиги*” яъни дунёнинг тугаши ҳақида сохта ғояларни тарғиб этишидир. Эътиборли томони бугунги кунда аксарият бузғунчи ва ижтимоий хавфли секталарнинг асосчилари ва уларнинг маънавий раҳномаларининг фаолияти ўрганилганда руҳан носоғлом ва ақлан заиф инсонлар эканлиги намоён бўлмоқда. Сектантлар тарафдорлари ва уларнинг раҳбарлари орасида жиноий ёки маъмурий жавобгарликка тортилган ҳуқуқбузарлар кўпроқ учраётганлиги бу жамият учун анча хатарли ва ташвишлидир.

Секталарда қийноқлар, одам ўғирлаш, қабрларни таҳқирлаш, жинсий жиноятлар, оммавий тартибсизликлар уюштириш, сектага қўшилган янги аъзолардан пул ундириш, ташкилот раҳбари томонидан секта аъзоларини ўғирлик қилишга, уй-жойи, мол-мулки ва секта учун васиятнома тузиш, жамоат жойларида тиланчилик қилишга ундаш орқали тўловга мажбур қилиш ҳолатлари кўпроқ учрайди. Натижада, бузғунчи ва ижтимоий хавфли секталарнинг асосчилари ва уларнинг маънавий раҳномалари томонидан бир қатор қотилликлар содир этилмоқда. Бугун дунё мамлакатларида деструктив ва тоталитар секталар томонидан диний нифоқ солиш орқали камситиш тенденциялари анча ўзгарган. Яъни, илгари миллий, ирқий камситишлар кўп кузатилган бўлса, ҳозирги даврга келиб жаҳонда диний озчиликни ташкил этаётган аҳоли ўртасида тоқатсизлик ҳолатлари кучайиб бормоқда[2]. Айниқса, бузғунчи ва ижтимоий хавфли секталардаги юқори даражадаги эзотеризм ва махфийлик туфайли диний ташкилот аъзоларини исмларининг тез-тез ўзгариши уларни фаолиятини ўрганиш ва аниқлашда қийинчиликлар тўғдирмоқда. Аксарият секталар томонидан ўтказилган маросимларда гиёҳванд моддалар, жинсий бузуқлик билан шуғилланиши натижасида ташкилот аъзолари ўртасида қурбонликлар содир этилаётганлиги аниқланган. Шу билан бирга секталарда гиёҳванд моддаларни истеъмол қилиш, турли жисмоний машқларини қўллаш, бир бўғинли жумлаларни узлуксиз талаффуз қилиш натижасида секта аъзолари махсус руҳий ҳолат (жазава)га тушиши оқибатида аъзолар онгнинг бузилиши воқеликни идрок этишда қийинчиликлар тўғдирмоқда. Ахборот таҳлилий ўрганишларга кўра, деструктив ва тоталитар секталарни сохта тарғиботларига кўр-кўрона бўйсунтириш орқали уларнинг ғояларига қатъий ишониш жамият манфаатларига мутлоқ зид эканлигини англаш лозим. Инсонларнинг деструктив ва тоталитар секталар таъсирига тушишининг асосий сабаби, уларда соғлом диний дунёқараш, маънавий ва сиёсий соҳадаги билимларнинг етарли эмаслигини англатади. Бугунги кунда деструктив ва тоталитар секталар таъсирига тушган инсонлар ҳаётидаги салбий ҳолатлар, худбинлик, шахсият ва интеллектуал таназзул, ўзгалар иродасига кўр-кўрона бўйсунтириш, индивидуалликнинг йўқолиши, тараққиётдан тўхташ, моддий йўқотишлар каби ҳолатлар келиб чиқишга замин яратмоқда. Мазкур ҳолат, секталар таъсирига тушган инсонлар дунёқарашида салбий ҳолатларни шаклланишида асосий омил вазифасини ўтамоқда. Хусусан, деструктив ва тоталитар секталар ўзининг диний ғояларини ўзга динлар орасида орасида устун қўйиш орқали инсонларни ҳар қандай диндан ва маданиятдан чалғитишга ҳаракат қилмоқда. Дунё миқёсида секталар жамиятнинг ижтимоий гуруҳлари орасида ўз таъсирини кенгайтириш, маҳаллий ҳукуматлардан ўз режаларини беркитиш мақсадида турли касб эгалари, турли миллат ва элатга мансуб фуқаролар, турли динларга эътиқод қилувчи диндорлар, турли ёшдаги инсонлар орасида ҳаракат қилмоқда.

Бузғунчи ва ижтимоий хавфли секталар фаолияти ўрганилганда миссионерлик руҳидаги диний адабиётларни оммалаштириш, ОАВ, интернет ва ижтимоий тармоқларда эълонлар ва турли хил рекламалар бериш орқали ўзларига янги тарафдорларни кўпайтириш мақсадида инсонларни жалб этишда маданий-маърифий тарғиботларни ўтказмоқда. Деструктив ва тоталитар секталар томонидан амалга оширилаётган диний тарғибот ва ташвиқотлар нафақат диний ғояларни ёйишга йўналтирилганлигини ҳисобга олганда, маърифий, маданий ва хайрия каби ҳар қандай нодиний фаолият, аслида, миссионерлик фаолияти ҳисобланади дейиш мумкин [3]. Бинобарин, деструктив ва тоталитар секталарнинг фаолият турлари ўз сиёсий вазифаларини оммалаштиришга қаратилганлиги билан миссионерликнинг асл мазмун-моҳиятини намоён этади. Шу билан бир қаторда, аксарият секталар ўз аъзолар сонини кўпайтириш учун турли хил спорт тўғаракларини очиш, гуманитар ёрдам кўрсатиш ва туризм орқали жалб этиш каби услубларни амалга ошириши кузатилган. Секталар ўз фаолиятларини такомиллаштириш мақсадида инсонларни бепул ошпазлик, тикувчилик, тиббий хизмат, шахс сифатида камол топиш, илмий тўғаракларга, ёшлар **“базми”** ва дискотекаларга таклиф этишади.

Шунингдек, концертлар, маърузалар, кўргазмалар ҳамда хорижий тил, асосан инглиз тили ва амалиёти бўйича билимларни мукамаллаштириш баҳонаси билан тузоқлар яратилади. Мазкур усуллар орқали миссионерлик иқтисодий-ижтимоий жабҳаларда орқада қолган ўлкаларда халққа кўрсатаётган хизматлари воситасида ўзларига мос шарт-шароитларни яратишмоқда. Аксарият секталар фаолиятида инсонларнинг кучли ва заиф томонларини аниқлашга интилиш ҳолатлари кўзга ташланади.

Айниқса, секталар инсонларнинг ақлий салоҳиятини бутунлай инкор этиш орқали инсонда беғам, беташвиш ҳамда лоқайдлик иллатларини тарғиб этиши кузатилмоқда. Натижада, мазкур ҳолат инсонларни жамият олдидаги маъсулиятини йўққа чиқариш орқали Ватанпарварлик, юрт равнақи ва инсонийликдан бегоналашувига замин яратмоқда. Шу тариқа, секталарнинг салбий таъсири оқибатида инсонларнинг дунёқараши, тили, дини, эътиқодига раҳна солинмоқда. Мазкур ҳолат, энг аввало, ҳар қайси шахснинг том маънодаги озод инсон бўлиб яшашга, унинг руҳий оламини издан чиқариш мақсадини кўзлаётганлигини намоён этмоқда. Хулоса қилиб айтганда Президентимиз Шавкат Мирзиёев қайд этгандек: “Баъзи гуруҳлар орасида диний қарашларни Конституция ва қонунларимизга қарши ва улардан устун қўйиш ҳолатлари кучаймоқда. Диний эътиқод ниқоби остида ёшларни маърифатга эмас, жаҳолатга ундаётган кишилар пайдо бўлмоқда”[4]. Зеро, маккор ва кўпоровчи бузғунчи ва ижтимоий хавфли секталарнинг хавфли томонларидан бири шундаки, баъзи жамоаларда, масалан, иеговочилар ва баҳойларда аъзолар харбий хизматга бориш, қўлларига қурол олишлари тақиқланади. Бундай ғоявий тарғибот Ватандан бегоналашишга, унинг тақдирига нисбатан бефарқлик ва лоқайдлик кайфиятининг шаклланишига замин яратади. Ноанъанавий диний конфессияларнинг бузғунчи ғоялари билан тарбияланган шахсларнинг кўпайиши албатта давлатимиз мантафаатларига таҳдид солиши ҳар бир Ватандошимизни огохликка ундайди.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Мирзиёев Ш. “Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга курашимиз”. Тошкент- “Ўзбекистон” – 2017. 65-бет.
2. Еленский В. Религия в глобальной политике: конец XX – начало XXI веков // Центр религиозоведческих исследований. – 07.10.2011. – Режим доступа: http://www.religiopolis.org/documents/3292-ve-elenskij-religija-v-globalnoj-politike-konets-hh-nachalo-hhi-vekov.html#_edn18
3. Оразбаева Г. Президент ОФ РИКЦ «Сана» К проблеме миссионерской деятельности в РК. www.akmol.kz/home/relig_101
4. Маънавият ҳаётимизда янги куч, янги ҳаракатга айланиши керак. Президент Шавкат Мирзиёевнинг Республика Маънавият ва маърифат кенгашининг кенгайтирилган мажлисидаги нутқи. Янги Ўзбекистон газетаси. 2023 йил 23 декабрь, 267-сон.

ǴAREZSIZLIK JÍLLARÍNDÁ QARAQALPAQSTANDA JERGILIKLI HÁKIMIYATTÍŃ QÁLIPLESIW TARIYXÍNAN

A. Saribaev, M. Ibragimov

Ájiniyaz atındaǵı NókisMPI. Tariyx oqıtıw metodikasi kafedrası oqıtıwshıları. Nókis

A. Ktaybekov

QMU Tariyx fakulteti 3-kursı talabası. Nókis

Ǵárezsizlik jıllarında mámlekette jergilikli hákimiyat organları tıp-tamırınan reformalandı. Sebebi, eski jergilikli administrativlik organları is júzinde tek burınǵı Sovet Awqamınıń kommunistlik partiyasınıń siyasatın turmısqa engiziw quralına, anıqıraǵı partiya shólkemleri basshılıq etetuǵın bir organǵa aylanǵan edi. Sol dáwirde ústemlik etip turǵan siyasiy sistema jergilikli orınlardaǵı demokratiyalıq hákimiyat dúzilisinde hám bazar ekonomikasına ótiwinde ekonomikalıq reformalardı tosqınlıq etti.

Ǵárezsizlik járiyalanǵannan soń, yaǵnıy 1992-jıl 4-yanvarda «Ózbekstan Respublikasında jergilikli hákimiyat organların qayta dúziw haqqında» Nızamı qabıl etilgenen keyin ǵana jergilikli hákimiyat uyımlarında ózgerisler júz berdi. Nızamǵa muwapıq, mámleketimizde hákim lawazımı engizildi hám jergilikli orınlarda basqarıw sistemasın reformalaw iske asırıldı. Bul Nızam qabıllanǵannan keyin, 1992-jılı 11-aprelde Qaraqalpaqstan Joqarǵı Keńesiniń VIII sessiyasında «Qaraqalpaqstan Respublikasında rayon hám qala hákimleri lawazımlardı shólkemlestiriw» Nızamı qabıl etildi [1. 41]. Usı Nızam aktin orınlaw maqsetinde 1992-jıl 4-mayda Qaraqalpaqstan Respublikası Joqarǵı Keńesi Prezidiumı tárepinen «Rayon, qala hákimleri hám olardıń hákimiyattıń wáqillikli organları – Xalıq deputatları Keńesleri menen óz-ara qatnası haqqında» Waqıtsha tártibi engizildi.

Hákimlik institutı bunnan aldın háreket etip turǵan organ Xalıq deputatları Sovetiniń atqarıwshı komitetleriniń ornına dúzilgen edi. Qaraqalpaqstan Respublikası Konstituciyasınıń 97-statyasına muwapıq, hákimlerge óz basqarıwındaǵı organlardıń qararları hám háreketi ushın jeke juwapkershilik júklengen bolıp, óz wákillikleri sheńberinde tiyisli aymaqtaǵı barlıq kárxanalar, mákemeler, shólkemler, birlеспeler, lawazımlı shaxslar hám puqaralar ushın orınlanıwı shárt bolǵan qararlar qabıl etedi.

Hákimlerdiq iskerligin shólkemlestiriw máseleleri 1993-jıl 24-dekabrde Qaraqalpaqstan Respublikası «Orınlardaǵı mámleketlik hákimiyat haqqında»ǵı Nızamı menen belgilep berilgen (bul hújjet jańa redakciyada 1998-jıl 29-yanvardaǵı Joqarǵı Keńestiń XIV sessiyasında qabıl etildi). Nızamınıń 1-statyasına muwapıq, Xalıq deputatlarınń Sovetleri rayonlarda hám qalalarda (rayonlıq baǵınıwdaǵı qalalardan basqa) wákillikli hákimiyat uyımları bolıp tabıladı. Rayonniń, qalanıń hákimi rayonniń, qalanıń eń joqarı lawazımlı adamı bolıp tabıladı hám usınıń menen bir waqıtta tiyisli aymaqta wákillikli hám atqarıw hákimiyatın basqaradı. [2. 35].

Hákim lawazımınıń engiziliwi - bul ekonomikanıń bazar qatnasıqlarına ótiw sharayatlarında atqarıwshı hákimiyattın bekkemleniwi bolıp tabıladı. Usı normativlik aktlerge muwapıq, rayon yaki qala hákimleri birden-bir basshılıq principi boyınsha óz wákilliklerin iske asırıp, atqarıwshı tártiplestiriwshı organlardıń sheshimi hám iskerligi ushın jeke juwapker.

Administrativlik basqarıw sistemasındaǵı jańalıqlar hákimiyat apparatı sapasın hám sociallıq-ekonomikalıq rawajlanıw kórsetkishlerin jaqsılaw maqsetinde iske asırılǵan edi. Ǵárezsiz Ózbekstan Respublikası hám suveren Qaraqalpaqstan Respublikasınıń jámiyetlik hám mámleketlik turmıstı demokratizacijalaw, bazar qatnasıqlarına ótiw sharayatlarında mámlekettiń jámiyetlik rawajlanıwǵa tásiriniń nátiyjeliligin arttırıw, mámleketlik apparatı, mámleketlik organlar, jergilikli ózin-ózi basqarıw institutlarınń óz-ara múnásibetin tártiplestiriw hám t.b. kórsetiw múmkin.

Bul process «Mámlekette demokratiyalıq reformalardı bunnan bılay tereńlestiriw hám puqaralıq jámiyetti qalıplestiriw» koncepciyasında hám «2017-2021-jılları Ózbekstan Respublikasını rawajlandırıw bes ústinlik baǵdarı boyınsha Háreketler strategiyası»nda belgilengen wazıypalar sheńberinde rawajlanıp bardı. Albette, mámlekette alıp barılıp atırǵan basqarıw hám hákimiyat sistemasındaǵı reformalar mámleketlik hákimiyat institutları hám puqaralardıń ózin-ózi basqarıw organlarınıń bunnan bılay da rawajlanıwına belgili dárejede tásir jasap, puqaralarda aktiv grajdanlıq poziciyanıń qalıplesiwine xızmet etedi.

Puqaralıq jámiyette jámiyetlik-siyasiy, mádeniy turmısta keń jámiyetshiliktiń qatnasıwı kózde tutıladı. Puqaralıq jámiyet institutlarınıń biri - bul puqaralardıń ózin ózi basqarıw organları sanaladı. Olar 1993-jıl 2-sentyabrde qabıl etilgen Ózbekstan Respublikasınıń «Puqaralardıń ózin ózi basqarıw

organları haqqında»ǵı Nızamında rásmiyleştirilgen. Bul nızamnıń negizinde barlıq qalalar menen rayonlarda, awıllıq elatlarda máhálle – mákán puqaralar jıyını shólkemlestirildi [3. 5]. Sonday-aq «Qaraqalpaqstanda puqaralardıń ózin basqarıw haqqında Nızam» 1993-jılı 24-dekabrde qabıllandı. Nızamǵa muwapıq 1993-jılı Qaraqalpaqstanda 320 puqaralardıń ózin-ózi basqarıw organları dúzildi. Onıń 130 qalalarda, 190 awıllıq orınlarda shólkemlestirildi.

Elimizde demokratiyalıq reformalardıń en jayıwı tiykarında 1999-jılı 14-aprelde Ózbekstan Respublikasınıń «Puqaralardıń ózin-ózi basqarıw organları haqqında» Nızamı jańa redakciyada qabıl etildi. Ózbekstanda Puqaralardıń ózin-ózi basqarıw organlarınıń huquqiy-normativ negizlerin bekkemlew, jámiyetlik qatnasıqlardı jáne de demokratiyalastırıw maqsetinde 2004-jılı Ózbekstanda «Puqaralar jıyını aqsqaqalları hám onıń keńesgóylerin saylaw haqqında» Nızam qabıllandı [4. 42]. Bul Nızamǵa muwapıq 2015-jılǵa kelip Qaraqalpaqstanda 402 puqaralardıń ózin-ózi basqarıw organları bolıp, onı 245-máhállelerde, 142-awıllıq orınlarda, 15-qalalıq jerlerde shólkemlestirildi.

2013-jılı 22-aprelde Ózbekstan Respublikası «Puqaralardıń ózin-ózi basqarıw organları haqqında» hám de «Puqaralar jıyını aqsqaqalları hám onıń keńesgóylerin saylaw haqqında» Nızamlarına ózgerisler hám qosımshalar kiritilip, bul organlar iskerliginiń huquqiy tiykarları jetilistirildi, atqaratuǵın xızmet hám wákiliqler kólemi arttı. Bul nızam boyınsha puqaralar jıyını aqsqaqalı, juwaplı xatkeri, diniy máseleler boyınsha keńesgóyi, sonday-aq jámiyetlik qalıplesken máhálle pasbanı puqaralar jıyını tárepinen eki yarım jılǵa saylandı. Sonday-aq puqaralardıń máselelerdi sheshiwge karatılǵan tiykarǵı baǵdarlar boyınsha komissiyalar shólkemlestirildi. Puqaralardıń ózin-ózi basqarıw organlarınıń isin muwapıqlastırıw aymaqlıq keńesi, Puqaralıq jámiyetti qalıplestiriwdi monitoringi biyǵárez institutınıń Qaraqalpaqstan bólimi xár tárepleme járdem berip keledi.

Jedel rawajlanıp baratırǵan búgingi dáwir, elimizde puqaralıq jámiyetin qalıplestiriw procesinde aldımızda turǵan keń kólemlı, sonıń menen birge, ózin-ózi basqarıw uyımı dep atalǵan máhálle institutı tárepinen jańadan-jańa wazıypalardı ámelge asırıw talap etilmekte. Usılardı esapqa alǵan halda Ózbekstan Respublikası Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2020-jıl 29-dekabr kúni Oliy Majliske hám xalqımızǵa jollaǵan Múrátında ózin-ózi basqarıw uyımlarınıń jumısın jetilistiriw, xızmetkerlerdiń materiallıq támiynatın jaqsılaw boyınsha baǵdarlama islep shıǵıw zárúrligi haqqındaǵı máseleleriń kóteriliwi jámiyette tómengi buyınnan baslap islesiw sistemasın durıs shólkemlestiriwdiń ámeliy mexanizmi bolıp xızmet etedi.

«Máhálle abat bolsa – el abat boladı. Máhállede ózgeris bolsa – pútkil jámiyet ózgeredi», - degen tereń mánili pikirlerge Prezidentimiz toqtap ótti hám «Abat máhálle», «Abat kóshe», «Abat úy» ólshemlerin turmısqa engiziwde, reformalardı «máhálle kesimi» tiykarında ámelge asırıwda, «Temir dápter», «Hayal-qızlar dápteri» hám «Jaslar dápteri»ne kirgizilgen puqaralardıń mashqalaların sheshiwde máhálle sisteması xızmetkerlerine joqarı isenim bildirdi.

Sońǵı jılları elimizde Prezidentimizdiń basshılıǵında xalıqtıń turmıs tárizin jaqsılaw, puqaralardıń múrátları menen nátiyjeli islesiw, olardı turmısınan razı etiw, orınlarda ushırasıp atırǵan mashqalalardı unamlı sheshiw, xalqımızdıń erteńgi künge bolǵan isenimin jánede bekkemlew baǵdarında keń kólemlı jumıslar ámelge asırılmaqta. Bunda, álbette máhálle institutın bunnan bılay da jetilistiriw, onıń sistemalı jumıs alıp barıwı ushın zárúr sharayatlardı jaratıw mámleketlik siyasat dárejesine kóterilip barmaqta. Ásirese, máhálle institutınıń ornın bekkemlew maqsetinde «Abat máhálle-qáwipsiz máhálle» principiniń engiziliwi – bul baǵdardaǵı iygiliqli jumıslardı jańa basqıshqa kóterdi.

Paydalanılǵan ádebiyatlar:

1. Аметов Т. Общественно-политические процессы в Республике Каракалпакстан (1989-2014 годы). –Т. Автореф. дисс. доктора философии (PhD) по ист наукам.
2. Қарақалпақстан тарийхы. – Н.: Илим, 2018
3. Маҳалла – ўзини узи бошқариш органи. –Т.: Фан, 1994
4. Жуманиязов Б. История формирования и развития институтов гражданского общества в Узбекистане в период независимости. –Т. Автореф. дисс. доктора философии (PhD) по ист наукам.

MA'NAVIYATNI YUKSALTIRISH MAMLAKATIMIZDA DAVLAT SIYOSATI DARAJASIDA

K. Primbetov

Ajiniyoz nomidagi NukusDPI dotsenti v.v.b., PhD. Nukus

M. Jumaboyeva

*Ajiniyoz nomidagi NukusDPI Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi
yo'nalishi 2-bosqich talabasi. Nukus*

Bizning xalqimiz qadim-qadimdan uzoq boy tarixga ega. Ajdodlarimiz asrlar mobaynida ta'lim- tarbiya masalalariga jiddiy qaragan, shu bois ular o'z navbatida avlodlarga ta'lim-tarbiya masalalariga doir bir qancha asarlar qoldirgan. Bu kabi noyob asarlar insonparvarlik, kamtarlik, mehnatsevarlik, do'stlik, iymon-e'tiqod, mehr-oqibat, odob-axloq kabi umuminsooniylar fazilatlarini shakllantirishning o'ziga xos usullarini jamlagan. Jamiyatda har tomonlama yetuk, barkamol inson o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi, bunday komil insonlar ajdodlar qolgan umumbashariy an'analar, milliy qadriyatlar asosida tarbiyalanadi.

Insoniyat dunyoga kelar ekan bu dunyoning oq-u qorasidan bexabar bo'ladi. Ulardan hayoti davomida ma'lumotlar olib boradi, sinaladi shu tariqa yuksaladi. Har qadamda turli xil chigalliklar, turli xil muammolar chiqib qolishi mumkin, bunday holatda ota-onalar maslahatlari, talim- tarbiya berib farzandini egri yo'lga kirishdan saqlab qoladi. Farzandini yoshligidan ta'lim-tarbiya berib yuksaltirib, ularni egri yo'ldan saqlab qoluvchi bu uning ota-onasidir. Shu sababdan ham tarbiya oiladan boshlanadi, farzandning yaxshi inson bo'lib ulg'ayishi ota-ona zimmasidagi katta mas'uliyatlardan biridir. Hikmatlarda: "Bolalaringizni tarbiyalamang, o'zingizni tarbiyalang. Ular baribir sizga o'xshagan bo'ladi" – deyilgan[1].

Farzand uyning ko'zgusidir, u uyda olgan tarbiyasini jamiyatda namoyon qiladi. Shu sababli ham ota-ona o'zini tarbiyalagan bo'lishi lozim. Qush uyasida ko'rganini qiladi deganidek, farzand ham ota-onasi tomon talpinadi, ularni ko'rganini takrorlaydi. Ota-ona farzandga o'zi namuna bo'la olsagina farzand tarbiyasi, bilimlil va ma'naviyatli bo'lib o'sadi.

Ana shunday ekan, hayotda ta'lim-tarbiyada ma'naviyat alohida muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'naviyatli insongina hayotda o'z o'rmini egallaydi, komil inson bo'lib shakllanadi, ravnaq topadi. O'zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab ma'naviyat masalalariga, uning yoshlarda shakllanishi va rivojlanish muammosiga ulkan ahamiyat berib kelinmoqda. Ma'naviyatni yuksaltirish mamlakatimizda davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Bu xususida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2021-yil 19-yanvar kuni ma'naviyat-ma'rifiyl ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamiyat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo'yicha o'tkazilgan videoselektor yig'ilishlarida shunday fikrlarni aytdilar: "Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir. Biz yangi O'zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot, ikkinchi ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlariga asoslangan kuchli ma'naviyatdir".

Mamlakatimizda barpo etilayotgan fuqarolik jamiyati ma'naviy barkamol, ruhan yetuk shaxslar jamiyati bo'lishi ham mavzuning dolzarbligini ko'rsatadigan omillardan biridir. Mavzuning dolzarbligini belgilaydigan yana bir muhim jihat shundaki, bizning jamiyatimizga yot bo'lgan kuchlar: terroristlar, diniyl aqidaparastlar, transmilliy, kiberjinoyatchilik va boshqa buzg'unchi g'oyalarni tashuvchilar asosiy e'tiborni o'smirlar va yoshlarni o'z tomonlariga ag'darib olishga harakat qilmoqdalar. Sababi ma'naviyatga qilingan tahdid mamlakatni inqirozga olib kelishini mumkinligini ular juda yaxshi anglashadi. Yoshlarni yuksak axloq va intizomli qilib tarbiyalash, ularning sifatli ta'lim olishi va vatanparvarlik ruhida voyaga yetishi mamlakat iqtisodiy va siyosiy taraqqiyotining kaliti hisoblanadi. Bu esa ijtimoiyl barqarorlik va muvaffaqiyat asosidir. Bugungi kunda yoshlar tarbiyasi muammolari deyarli barcha mamlakatlar uchun umumiy masaladir. Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning ma'naviyat va ma'naviy tarbiya masalalariga bag'ishlangan asarlarida bu muammolar shaxs ruhiyati, psixologiyasi bilan bog'lab izohlanadi. Bunday yondashuv psixolog olimlar va tadqiqotchilar uchun metodologik tayanch vazifasini bajaradi. O'smirlar ma'naviyatini yuksaltirish masalalarining O'zbekistonda davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi shu yo'nalishda ijtimoiyl-gumanitar fanlarda olib borilayotgan tadqiqotlar kengayishiga kuchli ta'sir o'tkazdi. Bu sohada, ayniqsa, mamlakatimiz faylasuflari, siyosatshunoslari, pedagog-olimlari tomonidan ko'zga ko'rinarli ishlar amalga oshirildi. Ayni paytda mamlakatimiz psixologlari

tomonidan shu yo'nalishda olib borilayotgan tadqiqotlarni yetarli, deb bo'lmaydi. O'zbekistonda ma'naviyat va uning qadriyatlari bilan bog'liqligi, tarbiyada muhim omil ekanligi davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi, bu muammolarga davlat tomonidan, ayniqsa, Prezidentimiz tomonidan katta e'tibor berilishi mazkur muammolarni atroflicha va barakali tadqiq uchun shart-sharoit yaratdi.

Ma'naviyati kuchli xalq hamma jabhada tik ko'z bilan boqa oladi. Nega deganda insoniyatning ko'p ming yillik tajrubasi shundan dalolat beradiki, dunyodagi zo'ravon va tajovuzkor kuchlar qaysi bir xalq yoki mamlakatni o'ziga tobe qilib, bo'ysundirmoqchi, uning boyliklarini egallamoqchi bo'lsa, avvalombor, uni qurolsizlantirishga, ya'ni, eng buyuk boyligi bo'lmish milliy qadriyatlari, tarixi va ma'naviyatini judo qilishga urinadi [2]. Buning tasdig'ini uzoq va yaqin tarixdagi o'tmish bilan yaqqol ko'rishimiz mumkin. Binobarin, ma'naviyatga qarshi qaratilgan har qanday tahdid o'z-o'zidan mamlakat xavfsizligini, uning milliy manfaatlarini, sog'lom avlod kelajagini ta'minlash yo'lidagi jiddiy xatarlardan biriga aylanishi va oxir-oqibatda jamiyatni inqirozga olib kelishi mumkin. Kezi kelganda ilgari aytgan bir fikrimni takrorlamoqchiman: bu dunyoda tabiatda ham, jamiyatda ham bo'shliq bolmaydi. Qayerdadir bo'shliq paydo bo'ldimi, hech shubhasiz, uni albatta kimdir to'ldirishga harakat qiladi[3].

Ma'naviyat —insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquwat, imon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir, desak, menimcha, tariximiz va bugungi hayotimizda har tomonlama o'z tasdig'ini topib borayotgan haqiqatni yaqqol ifoda etgan bo'lamiz. Mening nazarimda, «ma'naviyat» tushunchasi jamiyat hayotidagi g'oyaviy, mafkuraviy, ma'rifiy, madaniy, diniy va axloqiy qarashlarni o'zida to'la mujassam etadi. Shuning uchun ham bu mavzuda fikr yuritganda, mazkur qarashlarning barchasini umumlashtirib, keng ma'nodagi «ma'naviyat» tushunchasi orqali ifoda etish mumkin. Ma'naviyatning negizi va ma'no-mazmunini belgilaydigan asosiy xususiyatlar, birinchi galda insonning ruhiy poklanishi va qalban ulg'ayishi haqida gapirar ekanmiz, bir masalaga alohida e'tibor berishimiz lozim[4].

Albatta, har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatini uning tarixi, o'ziga xos urf-odat va an'analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi. Bu borada, tabiiyki, ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi. Bizning qadimiy va go'zal diyorumiz nafaqat Sharq, balki jahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo'lganini xalqaro jamoatchilik tan olmoqda va e'tirofetmoqda. Bu tabarruk zamandan ne-ne buyuk zotlar, olim-u ulamolar, siyosatchi va sarkardalar yetishib chiqqani, umumbashariy sivilizatsiya va madaniyatning uzviy qismiga aylanib ketgan dunyoviy va diniy ilmlaming, ayniqsa, islom dini bilan bog'liq bilimlarning tarixan eng yuqori bosqichga ko'tarilishida ona yurtimizda tug'ilib kamolga yetgan ulug' allomalarning xizmatlari beqiyos ekani bizga ulkan g'urur va iftixor bag'ishlaydi. Hozirgi davrda yutimiz jadal rivojlanayotgan davrda yoshlarimiz G'arb mamlakatlari ma'naviyatiga taqlid qilmoqda. Bu juda achinarli holatdir. Negaki bizning o'zligimiz, an'analarimiz, qadriyatlarimizdan G'arb davlatlari ma'naviyati ustunlik qilmoqda.

Hozirgi kunda ma'naviyatimizni asrash uchun nima qilish lozim va unga tahdid soladigan xurujlarga nimani qarshi qo'yish kerak, deb so'rasa, men avvalombor shu yurtda yashayotgan har qaysi inson o'zligini anglashi, qadimiy tariximiz va boy madaniyatimiz, ulug' ajdodlarimizning merosini chuqurroq o'zlashtirishi, bugungi tez o'zgarayotgan hayot voqeligiga ongli qarab, mustaqil fikrlashi va diyorumizdagi barcha o'zgarishlarga daxldorlik tuyg'usi bilan yashashi zarur, deb javob bergan bo'lardim. Ishonchim komilki, ana shunday noyob insoniy fazilatlariga, yuksak ma'naviyatga ega bo'lgan xalq hech kimga hech qachon qaram bo'lmaydi, o'zining ezgu maqsadlariga albatta yetadi.

Muxtasar qilib aytganda, olis va yaqin tariximiz shuni ko'rsatadiki, xalqimiz doimo ma'naviy jasorat hissi bilan yashagan va bu ulug' tuyg'u uning hayotida yillar, asrlar o'tgani sayin tobora kuchayib, yuksalib bormoqda. Chunki xalq ma'naviyati shunday bir buyuk ummonki, har qaysi avlod undan kuch-qudrat, g'ayrat va ilhom olib, o'zining naqadar ulkan ishlarga qodir ekanini namoyon etadi.

Adabiyotlar:

1. Tarbiya-chi kitobi G'iyosiddin Yunus 48-bet
2. I.Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. 2018
3. Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish eng oliy baxt-saodatdir. Toshkent – “O'zbekiston” - 2015
4. www. Ziyonet.uz

TA'LIMDA VAQTNI REJALASHTIRISH MUOMMALARI

Bayrambay Saparbaevich Bekniyazov

*Ajiniyoz nomidagi NukusDPI o'qituvchisi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Nukus*

“Vaqtни boshqarmay turib, boshqa hech narsani boshqarib bo'lmaydi”.

Piter Druker (zamonaviy menejment asoschisi)

Vaqtни oqılona boshqarish qobiliyatlari va ko'nikmalari odamga noaniq va ko'p vazifali vaziyatlarda jarayonini optimallashtirishga imkon beradi. Insonning vaqtini malakali boshqarish yuzaga kelgan vaziyatni to'g'ri baholashni, belgilangan maqsadlarga erishish uchun zarur bo'lgan vaqt xarajatlarini tahlil qilish bilan qarorlar qabul qilishni, vaqtinchalik makonda maqsadlarga erishish dasturini ishlab chiqishni, shuningdek, vaqtни nazorat qilishni anglatadi. [3].

Taym-menejment: (ingl. «*time-management*» – **vaqtни boshqarish**) -shaxsiy va professional sohalarida maqsadlarga erishishga hissa qo'shadigan ish va shaxsiy vaqtни samarali tashkil etishga imkon beradigan texnologiya sifatida qarash kerak bo'ladi.

Bizning fikrimizcha taym-menejment -eng avvalo, insonning jismoniy, aqliy va ruhiy rivojlanishiga qaratilgan mehnat va mashqlar yig'indisidir.

Rejalashtirish – *vaqtни boshqarishning asosiy vositasidir*. Rejalashtirishdan foydalanish tufayli biz o'z vaqtida *foyda* olamiz. Boshqaruv faoliyati amaliyotida, odatda, *ish kunini rejalashtirishga sarflangan 10 daqiqa har kuni ikki soatgacha bo'lgan ish vaqtini tejash imkonini beradi*.

Vaqtни rejalashtirish (*time management*) – bu *vaqtни tashkil qilish va optimallashtirish texnologiyasi*. Agar siz doimo kechiksangiz, barcha rejalaringizni bajarishga vaqtingiz bo'lmasa yoki doimo muhim narsalarni kechiktirsangiz, ular yordam beradi.

Vaqtни boshqarishning ko'plab tizimlari mavjud: har bir daqiqani qat'iy rejalashtirishdan tortib, kunni hech qanday segmentlarga bo'lishni o'z ichiga olmaydigan yumshoq, moslashuvchan usullargacha. Bir vaqtning o'zida barcha ishlarni tashkil qilishning universal usuli yo'q, shuning uchun siz bir nechta texnikani sinab ko'rishingiz, ularni birlashtirishingiz va ishingizning tabiati va o'ziga xos xususiyatlariga mos tizimni topishingiz kerak bo'ladi [2].

Vaqtни rejalashtirish – bu kelgusi davr uchun mehnat jarayonlarining loyihasi. Rejalashtirish quyidagilardan iborat yopiq tizim sifatida ifodalanishi mumkin:

- hayot rejalari va uzoq muddatli rejalalar,
- yillik rejalalar,
- oylik rejalalar va haftalik rejalalar,
- kun rejalari.

Vaqt kundaligi – bu shaxsiy ish kartasi fayli bo'lib, u bir vaqtning o'zida ish stoli taqvimı, shaxsiy kundalik, daftar, rejalashtirish vositasi, manzillar ro'yxati, katalog, g'oyalar karta fayli va boshqarish vositasidir.

Vaqt kundaligining tuzilishi:

- taqvim qismi;
- sanalar bo'limi;
- manzillar va telefon raqamlari bo'limi.

Ta'limda vaqtни rejalashtirish

1. Barcha ishlarni savatchaga to'plash.
2. Ustuvorlikni qo'yish.
3. Iloji boricha ko'proq vakil tayinlash
4. Moslashuvchan amaliyotlarni amalga oshirish.
5. Shaxsiy samaradorlik uchun vaqtни boshqarishdan foydalanish (pomodoro usuli).

Kechqurun tayyorgarlik ko'rish usuli

Kechqurun tayyorgarlik ertalab erta turish qiyin bo'lganlar uchun mos keladi - psixolog Nik Vignalning maslahati. Ish kunining oxirida ertangi kun uchun ish va shaxsiy vazifalarni yozing. Shunday qilib, siz o'zingizning ish yukingizni oldindan tushunasiz va ertalab shoshilmasdan vazifalarni taqsimlaysiz. Kechqurun vazifa rejasini, ish kiyimlarini yoki uydan tashqarida ishlasangiz, borish uchun tushlik qilishingiz mumkin [3].

Ta'limda "Vaqt" resursining samarasiz ishlashining 3 darajali asosiy sabablari

Birinchi darajali sabablar- bu ta'lim tashkilotidagi texnik xatolar:

1. Vazifani bajarish uchun zarur bo'lgan vaqt hisobidagi xatolar.
2. Topshiriqlarni bajarish uchun aniq vaqtni rejalashtirmaslik.
3. Vazifani bajarish uchun berilgan vaqtni noto'g'ri tanlash.
4. Vazifa juda murakkab va mashaqqatli bo'lib, bir o'tirishda hal qilishning iloji yo'qligi.

Ikkinchi darajali sabablar – ta'lim tashkilotidagi ob'ektiv omillar:

1. Aql bovar qilmaydigan ish yuklamasi.
2. Kونسentratsiyaning etishmasligi.
3. Sog'lik muammolari kuchni cheklashi.
4. O'zgarishlar bosqichi.
5. Yuqori shovqin muhiti.
6. Boshqalarning tartibsizligi orqali etkaziladigan noqulayliklar.

Uchinchi darajali sabablar - bu ta'lim tashkilotidagi psixologik to'siqlar:

- Hayotda maqsad va ustuvorliklarda aniqlik yo'qligi.
- Rad etishni bilmaslik va boshqalarning bundan foydalanishi.
- Mumkin bo'lgan muvaffaqiyatsizlikdan qo'rqish.
- Muvaffaqiyatdan qo'rqish.
- O'zgarishlardan qo'rquv.
- Tugatishlardan qo'rquv.
- Perfeksionizm.
- O'z-o'zini motivatsiyasining pastligi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, ta'lim muassasalarida pedagog-xodimlar tomonidan bajariladigan vazifalarning maqsadini belgilash, maqsadiga ko'ra bajariladigan vazifalarning muhimlik darajasini aniqlash hamda ulardan qaysilari muassasa faoliyatini takomillashtirishda o'ta muhim, qaysilarini bosqichma-bosqich bajarish mumkinligini belgilab olish zarur. Pedagog-xodimlar kunlik ishlarini tahlil qilishlarida, ma'lum bir vazifani bajarish uchun qancha vaqt sarfladim yoki shunga yaqin, turdosh bo'lgan vazifani bajarishga qancha vaqt sarfladim-u, qanday xatoliklarga yo'l quydim va bu xatolarimni tuzatishga qancha vaqt ketdi, bu ortiqcha sarflangan vaqt davomida qancha muhim ishlarni amalga oshirishim mumkin edi kabi savollarga javob topishlari vaqtni to'g'ri taqsimlash va faoliyatni takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Архангельский Г.А. Формула времени: тайм-менеджмент на Outlook 2007. – М.: Манн, Иванов и Фербер, 2006.
2. Сотсков Ю.Н., Егорова Н.Г., Матвейчук Н.М., Петрова Е.А. Модели и комплекс программ для планирования рабочего времени // Информатика. – 2007. – № 4. – С. 23-36.
3. Баранов Д. Е., Демко Е. В., Лукашенко М. А. PR. Теория и практика. М.: Московский финансово-промышленный университет «Синергия», 2013. 352 с.

MISSIONERLIKKA QARSHI KURASHDA MEDIA MAYDONNING GLOBAL IMKONIYATLARI

Sharapadin Maulenbergovich Tanimov

*Ajiniyoz nomidagi NDPI Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrası katta
o'qituvchisi. Nukus*

Jahonda global axborotlashtirish jarayonlarini faollashuvi zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tez sur'atlarda rivojlantirishga zamin yaratmoqda. Ayniqsa, axborotni global miqyosda qudratli qurolga aylanishi missionerlik faoliyatida mafkuraviy – g'oyaviy ta'sir o'tkazishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu haqda Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda, "...radikal diniy mafkuraning buzg'unchi axborotlari ta'siri ostida jamoatchilik ongi buzilmoqda, fuqarolarning davlatga ishonchi so'nib, vatanparvarlik va hamjihatlik tuyg'ulari yo'qolmoqda, qadriyatlar va axloqiy me'yorlar o'zgarimoqda, oilalar tanazzulga uchramoqda" (Mirziyoyev, 2021), - deya ta'kidlagan ayni haqiqatdir. Zero, zamonaviy axborot makonidagi harakatlarning jadallashuvi mafkuraviy ta'sir o'tkazishda o'tkir qurolga. Bu borada Islom Karimov qayd etgani kabi, "agar harbiy, iqtisodiy, siyosiy tazyiq bo'lsa, buni sezish, ko'rish, oldini olish mumkin, ammo mafkuraviy tazyiqni, uning ta'siri va oqibatlarini tezda ilg'ab etish nihoyatda qiyindir" (Karimov, 2008). Shu o'rinda, global mohiyat kasb etayotgan axborot almashinuvi chegara bilmas g'oyaviy va e'tiqodiy zarba berishlar insoniyat taraqqiyotiga rahna solayotgani tobora oydinlashmoqda. Ma'lumki, g'oyaviy kurash va e'tiqodiy tahdid, insonlarning ma'lum e'tiqodidan voz kechdirib, o'zga e'tiqodlarga va aqidalarga da'vat etish global muammoga aylanib bormoqda. Hozirgi kunda globallashuv shiddati inson ongi, qalbi va ruhiyatini zabt etish (ekspantsiya)ga harakat qilayotgan missionerlik harakatining oldini olish va bartaraf etishda axborot-psixologok xavfsizlikni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Sungi vaqtlarda mamlakatimizga o'zida yovuz va buzg'unchi siyosiy maqsadlarni o'zida namoyon etuvchi axborot xurujlarini anglash dolzarb vazifa hisoblanadi. Missionerlikning axboriy ko'rinishi og'zaki, bosma, elektron va boshqa usullar orqali amalga oshirilayotganligini anglash lozim. Ayniqsa, bu bugungi kunda missionerlarning o'z diniy qarashlarini jamoat joylarida, omma ongida reklama qilish va tarqatishga qaratilgan faoliyati misolida namoyon bo'lmoqda.

Yirik iqtisodiy salohiyatli davlatlardagi diniy asosda tashkil etilgan xalqaro markazlar missionerlik harakatlarini amalga oshirish orqali rivojlanayotgan mamlakatlarning o'z borlig'icha xalqaro munosabatlarga kirishi jarayonini izdan chiqarishga intilib keladi. Bu haqda ingliz siyosiy arbobi, B.Britaniya sobiq bosh vaziri U.Churchill "Kim axborotga ega bo'lsa, dunyoga egalik qiladi" (Churchill, 2021) - deya ta'kidlagan edi. Ayniqsa, hozirgi kunda ayrim davlatlar axborot xurujlarini uyushtirish uchun ular juda katta mablag' sarflayotganligini ta'kidlash lozim. Missionerlik bilan shug'ullanuvchi turli sektalar inson qalbi va ongini egallashda internet tarmog'idan samarali foydalanishmoqda.

Globallashuv sharoitida internetning g'oyaviy ta'sir o'tkazish miqyosi va ko'lami keskin dapajada ortib bormoqda. Ayniqsa, internet tarmog'i orqali tarqatilayotgan g'arazli ma'lumotlar, turli buzg'unchi g'oyalar, xalqimizning milliy mentalitetiga va odob-axloqiga jiddiy tahdid solayotgani bugun barchamizni tashvishlantirmoqda. Xususan, «UZ» domenidagi veb-sahifalarda milliy mentalitetimizga yot bo'lgan, fuqarolarimizning ongi, ruhiyati, ma'naviyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan, axloqsizlik, behayolik, pornografiya, shafqatsizlik, zo'ravonlik, qimor hamda tavakkalchilikka asoslangan o'yinlar targ'ibotiga xizmat qilishi mumkin bo'lgan materiallar yoki boshqa veb-resurslarga havolalar joylashtirish kuzatilayotgani afsuski tashvishlidir.

Bugungi kunda mamlakatimizda ham internet foydalanuvchilarning soni kun sayin oshib borayotgani hech kimga sir emas. Xususan, O'zbekistonda internetdan foydalanuvchilarning 35 foizi ijtimoiy tarmoqlardan foydalanuvchilar va ularning aksariyati aynan yoshlardir. Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali missionerlik tashkilotlari o'zlarining razil niyatlarini amalga oshirish uchun eng

avallo, hali ongi shakllanib ulgurmagan yoshlarni to`g`ri yo`ldan adashtirish uchun tinmay «harakat»qilmoqda.

Olib borilgan o`rganishlarga ko`ra, internet makonida yoshlarning ma`naviyatiga salbiy ta`sir etuvchi missionerlik illatlardan himoya qilish, ularning xavfsizligini ta`minlash jamiyatimiz oldida turgan jiddiy va kechiktirib bo`lmas vazifa hisoblanadi. Bu borada eng avvalo yoshlarda internet savodxonligi va madaniyatini yuksaltirish, axborot makondagi qiziqishlarini muntazam kuzatib borish shu bilan birga missionerlik tahdidi va uning asl mohiyatini fosh etuvchi ma`lumotlarni etkazish tizimini yo`lga qo`yish muhim ahamiyat kasb etadi. Milliy qonunchiligimizda bu sohada bolalarni himoya qilishga oid tegishli normalar mavjud.

Globalashuv sharoitida taxlikali ko`rinishga ega bo`lgan missionerlik g`oyaviy – mafkuraviy tahdid sifatida dunyo jamoatchiligi ongi, ruhiyati, madaniyati va ma`naviyatiga jiddiy ta`sir o`tkazmoqda. Zero, mazkur omillar shiddat bilan o`zgarayotgan tahlikali zamonda jiddiy fikrlashni taqoza etmoqda. Bu haqda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev qayd etganidek: «Bugun biz shiddat bilan o`zgarib borayotgan zamonda yashamoqdamiz. Dunyo miqyosida manfaatlar kurashi, raqobat tobora avj olib, xalqaro vaziyat keckinlashib bormoqda» (Mirziyoyev, 2018),- deya ta`kidlagan edi. Zero, vayronkor g`oyalar ya`ni millionlab kishilarni shu g`oyalar bilan avval miyasiga, keyin esa qo`llariga qupol berilganidan keyin boshlangan. Globalashuv mafkura poligonlarida g`oyaviy–mafkuraviy kurashning tobora avj olishi yoshlar ongi va qalbini ekspansiya etishga qulay zamin yaratmoqda. Natijada, bugungi davr va zamon shiddati g`oyaviy-mafkuraviy kurashlarning tobora avj olayotganini anglash qiyin emas.

Tobora rivojlanib borayotgan globalashuvning muhim xususiyatlaridan biri – insonlarning ongi va qalbini egallash uchun kurashning kuchayotganligini kuzatish mumkin. Jahon geosiyosiy maydonidagi o`zgarishlar, tinchlik, barqarorlikni saqlashda dunyo afkor ommasidan muntazam ogoh bo`lishni taqoza etmoqda.

Sir emas, ba`zan beozorgina bo`lib tuyulgan musiqa, oddiygina mul`ffil`m yoki reklama lavhasi orqali ham ma`lum bir mafkuraviy- g`oyaviy maqsadlar va intilishlar ifodalanadi. Bu borada Islom Karimovning “Yoshlarimizning ba`zan soxta g`oyalar orqasidan ergashib ketayotgani biz uchun eng katta xavf, desam mubolag`a bo`lmaydi” (Karimov, 2000) – degan fikrlari ayni haqiqatdir. Zero, dunyoning ayrim mintaqalarida faoliyat ko`rsatayotgan, qudratli siyosiy markazlar ta`siridagi zamonaviy axborot texnologiyalari muayyan mintaq va mamlakatlarni ongli ravishda “nishonga olib”, mavjud siyosiy rejim bilan mamlakat aholisi o`rtasiga nifoq solishga intilmoqda. Mazkur intilish natijalariga ko`ra, nishonga olingan hududning qonuniy hukumatni zaiflashtirilishi oqibatida beqrorlik holatlari vujudga keltiriladi. Bu strategiya zamirida mavjud boshqaruv tuzumiga nisbatan norozilik kayfiyatlarini amalga oshirish uchun mahalliy aholi vakillarini ongini chalg`itish maqsadida dezinformatsion axborotlar haqiqat sifatida taqdim etiladi.

Ma`lumki, dunyoning biron-bir joyida sodir bo`lgan voqea va hodisalar haqidagi g`oyalar butun jahonga juda qisqa fursatda yoyilmoqda. Biroq ushbu imkoniyatlardan turli xil maqsadda foydalanishga urinishlar mavjud ekanligi bugungi kunda ko`pchilikning diqqat e`tiborini tortmoqda.

Missionerlar axborot xurujini amalga oshirishda ularni moddiy rag`batlantirish, yollash usullari orqali o`zlarining istiqbolli rejalarini bajarishmoqda. Mutaxassislar hozirda axborot missiyasining muhim qurollaridan biri sifatida ommaviy axborot vositalari va informatsion tazyiqlarning juda muhim ekanligini ta`kidlashmoqda. Bu haqda AQSh Markaziy razvedka boshqarmasining “daho”si hisoblangan A.Dallesning fikricha, “Inson miyasi, odamlarning ongi o`zgaruvchanlikka moyildir. O`z navbatida, A.Dalles o`z fikrida, tartibsizlik, palapartishlik urug`larini sochish orqali biz ularning o`ziga sezdirilmagan holda asil qadriyatlarni unutib, soxta qadriyatlarga ishonishlariga erishishimiz mumkin. Insonlar ongi uchun ularning bolalik va o`smirlik chog`laridanoq kurashish, yoshlarini o`zlari o`ylab topgan soxta qadriyatlar quliga aylantirish, qolaversa, har bir millat orasida o`z maslakdoshlarimizni topish hamda ularni saflarini kengaytirish orqali asta-sekin bo`ysunishni istamagan har qanday mag`rur halqni ham bosh egishga majbur qilamiz, aks holda esa misli ko`rilmagan fojealarga giriftor etamiz” (Primov, 2011) - deya ta`kidlagan edi. Shu o`rinda, A.Dallesning yuqoridagi fikriga e`tibor

qaratilsa, axborot xuruji xar qanday davlat va jamiyat xayotidagi barqarorlikka putur etkazishini anglashimiz lozim. Taniqli sotsiolog Ferdinand Tonnies fikricha, “Matbuot- haqiqiy zarur ijtimoiy

fikr” yaratish quroli, mazkur qurolni ishlatish mexanizmini amalga oshirish tufayli haqiqiy qurol vazifasini o`tash mumkinligi to`g`risidagi g`oyani ilgari suradi. Binobarin, keyingi 15 yil mobaynida AQSh hukumati tomonidan informatsion qurollar va psixologik ta`sir vositalarini ishlab chiqarish va takomillashtirish maqsadida sarflanadigan mablag`lar miqdorini 4 barobarga oshirgan (Primov, 2011).

Har qanday g`oya inson qalbini egallaganda, uning ma`naviy–ruhiy dunyosining bir qismiga aylangan taqdirdagina, uning faoliyatining asosini tashkil etuvchi harakat dasturiga aylanadi. Shunday ekan, inson qalbini zabt etishi orqali uning ongini egallash bugungi mafkuraviy kurashning bosh maqsadiga aylanib bormoqda. Zero, bugungi zamon talabidan kelib chiqqan holda axborot maydonidagi amalga oshirilayotgan missionerlik harakatlariga nisbatan uning bizga aloqasi yo`q, deb beparvo qarab bo`lmaydi. Mana shunday vaziyatda odam o`z mustaqil fikriga, zamonlar sinovidan o`tgan hayotiy – milliy qadriyatlarga, sog`lom negizda shakllangan dunyoqarash va mustahkam irodaga ega bo`lmasa, har turli ma`naviy tahdidlarga, ularning goh oshkora, goh pinhona ko`rinishdagi ta`siriga bardosh berishi amrimahol.

Shunday ekan, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga, ya`ni Vatanga muhabbat, iymon, e`tiqod, mas`uliyat, vatanparvarlik, insonparvarlik, ilmga ishtiyoq, yurt tinchligi, xalq farovonligi, millatlararo totuvlik, ijtimoiy hamkorlik, diniy bag`rikenglik, komil inson kabi sog`lom g`oyalarga asoslangan mafkuraviy immunitetni mamalakatimiz fuqarolari, ayniqsa, yoshlarda shakllantirib, uni yanada rivojlantirib borish, hozirgi davrning o`ta dolzarb masalasi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мирзаёев Ш. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. Тошкент: «O‘zbekiston» нашриёти. 2021.Б- 329-330.
2. Каримов И. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: “Маънавият”. 2008. – Б. 113.
3. Афоризмы У. Черчилля [Электронный ресурс] // сайт «Aforizmo.ru». 30 сент. 2012. URL: <http://www.aforizmo.ru/authors/>
4. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2012 йил 21 май « Ўзбекистон Республикаси таълим муассасаларида мобил телефонлардан фойдаланишни тартибга солиш чора-тадбирлари тўғрисида» ги 139-қарори. <https://lex.uz/docs/2013801>.
5. Мадрахимов А. Бугунги кун ижтимоий тармоқларининг ёшлар маънавий-ахлоқий тарбиясига таъсири // Маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини ошириш ва тарғиботнинг замонавий технологиялари. – Тошкент: Мах pristil, 2022. – Б. 484.
6. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2018 йил 28 декабрдаги Олий Мажлисга қилган Мурожаатномаси. <http://www.uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliasy-28-12-2018>.
7. Каримов И.Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – пировард мақсадимиз.-Т., 2000, 466-б.
8. Примов Б. Ахборот оқимининг ахлоқий кадриятларга таъсири. ДЖҚА. Жамият ва бошқарув журнали. Т.: “Ўзбекистон” НМИУ. 2011. 2 сон.Б- 21.

ИЧКИ ИШЛАР ОРГАНЛАРИ ХОДИМЛАРИДА МАФКУРАВИЙ ИММУНИТЕТНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ МАЪНАВИЙ-МАЪРИФИЙ ОМИЛЛАРИ

Мусаев Мақсуд Турсунпўлатович

*Самарқанд шаҳар бўйича ички ишлар органлари фаолиятини мувофиқлаштириш бошқармаси
7-сон ички ишлар бўлими бошлиғи, подполковник. Самарқанд*

Глобаллашув шароитида дунё миқёсида таҳликали вазиятни вужудга келиши хавфсизлик ва барқарорликни таъминлаш вазифаси муҳим аҳамият касб этмоқда. Хусусан, бугунги кунда мафкуравий таҳдидлар кучаётган бир вақтда ҳар қандай ривожланаётган жамият ва давлат ўзини тинчлигини асрашни ҳаётий заруратга айлантормоқда. Дунё миқёсида шиддат билан кечаётган глобаллашув жараёнлари ўз навбатида тинчлик ва барқарорликка қарши янги таҳдид ва хатарларни вужудга келтирмоқда. Мана шундай мураккаб ва таҳликали вазият ички ишлар органлари ходимларида мафкуравий иммунитетни шакллантириш борасида маънавий-маърифий ишларни янги босқичга кўтаришни тақоза этмоқда. Бу борада Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг ташаббуси билан 2023 йил 22 декабрь куни Республика Маънавият ва маърифат кенгашининг кенгайтирилган мажлисида мамлакатимиз ҳаётидаги ғоят муҳим масалаларни муҳокама қилиш ва улар юзасидан зарур ечимлар топиш мақсадида бўлиб ўтган йиғилишида маънавият ва маърифат масаласига алоҳида эътибор қаратиб ўтилган эди.

Бу ҳақда Давлатимиз раҳбари Шавкат Мирзиёев қайд этганидек: “Бугун маънавият бошқа соҳалардан ўн қадам олдинда юриши керак, маънавият янги кучга, янги ҳаракатга айланиши шарт!”[1]. Шу мақсадда ички ишлар органлари ходимлари ўртасида маънавий-маърифий ишларни сифат ва мазмун жиҳатидан мутлақо янги босқичга кўтаришга алоҳида эътибор қаратилаётгани бежиз, эмас албатта. Зеро, дунё миқёсида шиддат билан кечаётган таҳликали жараёнлар маънавий-маърифий соҳаларга ҳам жиддий таъсир ўтказмоқда.

Бугунги кунда мамлакатимизда ички ишлар тизимини тубдан ислоҳ этиш ва соҳани янги босқичга олиб чиқиш асосий вазифа сифатида алоҳида эътибор қаратилмоқда. Мазкур вазифани амалга оширишда ички ишлар органлари ходимларининг маънавий-маърифий дунёқарашини юксалтириш муҳим аҳамият касб этади.

Ўзбекистон Республикаси Ички Ишлар органлари ходимларига ҳаётий ва профессионал кўникмаларни илм-маърифат асосида сингдириш, мамлакатимиз ҳаётидаги реал ижтимоий-сиёсий ўзгаришлар билан уйғун равишда уларнинг билимларини ошириб бориш, ён-атроф ва жаҳонда рўй бераётган ижтимоий-сиёсий жараёнларга миллий манфаатларимиздан келиб чиққан ҳолда ёндашиш, ички ва ташқи таҳдидларга қарши мафкуравий иммунитетни мустаҳкамлаш масалаларига алоҳида эътибор қаратилмоқда.

Шу ўринда, «2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси»ни устувор йўналишларидан бири “Маънавий тараққиётни таъминлаш ва соҳани янги босқичга олиб чиқиш”[2] асосий вазифа этиб белгиланган. Хусусан, мамлакатимиз ички ишлар органлари тизимида маънавий-маърифий ишларнинг ташкил қилиш ва ўтказиш бўйича амалий натижаларга эришилмоқда.

Бугунги кунда мамлакатимизда ички ишлар ходимларнинг замонавий қиёфасини яратишга қаратилган дастурий ҳужжат Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясининг II йўналиши “мамлакатимизда адолат ва қонун устуворлиги тамойилларини тараққиётнинг энг асосий ва зарур шартига айланттириш”нинг 17-мақсади: “Ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органларнинг янги қиёфасини шакллантириш ва уларнинг фаолиятини халқ манфаатлари, инсон қадр-қиммати, ҳуқуқ ва эркинликларини самарали ҳимоя қилишга йўналтириш”, деб номланиб, унда “Ички ишлар органларини халқнинг ишончли ҳимоячиси сифатида халқчил профессионал тузилмага айланттириш ҳамда аҳоли билан мақсадли ишлашга йўналтириш” вазифаси белгиланган[3]. Зеро, мазкур ҳолатда бу ходимларнинг ўз ваколатларини бажариш жараёнида фақатгина профессионализмнинг ўзи етарли эмаслигини, балки маънавий ва

маърифий тайёргарлик муҳим аҳамият касб этишини англатади. Шу ўринда, ички ишлар органлари ходимларининг маънавияти ҳақида фикр юритганда энг аввало, ҳар бир ходим ўзини халқ вакили сифатида она Ватанини чексиз севадиган ўз юртига фидойи, фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини виждонан, имон-эътиқод, садоқат, ишонч, ҳалоллик, довюраклик, беғаразлик билан ҳимоя қилишга кодир бўлган жасоратли инсонлар тушунилади.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 26 мартдаги “Жамоат хавфсизлигини таъминлаш ва жинойтчиликка қарши курашиш соҳасида ички ишлар органлари фаолиятини сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-6196 сонли Фармонида 1-илова “Ички ишлар органлари тизимини янада такомиллаштириш бўйича “Йўл харитаси”нинг II йўналишида “Маънавий-маърифий ишлар, ходимларни узлуксиз тайёрлаш, қайта тайёрлаш ва малакасини оширишнинг самарадор механизмини жорий этиш” 9 банди – “куйидагиларни ўз ичига олувчи Ички ишлар органларида маънавий-маърифий ишларни ташкил этиш концепциясини ишлаб чиқиш ва тасдиқлаш белгиланган эди. Айниқса, бугунги кунда янги тараққиёт сари дадил одимлаётган мамлакатимизда ички ишлар органларига бўлган муносабат тубдан ўзгариб бормоқда. Бугун ички ишлар органлари ходими деганда халқимиз онгида ўз Ватанини жондан ортиқ севадиган, мамлакатимиз тинчлиги ва осойишталиги йўлида жонини фидо қилувчи, халқ ва миллат манфаатларини доим устун қуядиган, одоб-ахлоқ қоидалари ва ҳуқуқий нормаларга риоя этувчи ҳақиқий мард ватанпарвар инсонлар гавдаланади.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2021 йил 2 апрелдаги ПҚ-5050-сонли қарорида ички ишлар ходимларни ҳар қандай шароитда давлат ва халқ манфаатларига хизмат қиладиган, миллий қадриятларга содиқ, умуминсоний қадриятларга таянадиган, ёт ва бузғунчи ғояларга мурасасиз курашувчи, иймон-эътиқоди ва иродаси мустаҳкам, маънавиятли ва фидойи, аждодларимиз ва мардлик кўрсатиб ҳалок бўлган ходимларнинг бебаҳо меросига таяниб яшайдиган баркамол шахс сифатида тарбиялаш, улар қалбида давлат ва халқимизнинг хавфсизлигини таъминлашда шахсий дахлдорлик ва юқори масъулият ҳиссини шакллантириш бугунги куннинг энг муҳим вазифаси сифатида белгиланган. Ушбу қарорга кўра, Ички ишлар органларида маънавий-маърифий ишларни ташкил этиш концепцияси» тасдиқланди[4].

Мазкур концепцияда ички ишлар органларида маънавий-маърифий ишларни самарали ташкил этиш тизимини янада такомиллаштириш, ходимларнинг маънавий салоҳияти ва мафкуравий иммунитетини кучайтириш, уларнинг онгида Ватан тақдири ҳамда келажаги учун дахлдорлик туйғусини янада мустаҳкамлаш каби улуғ мақсадлар ўз аксини топган.

Шунингдек, концепция ички ишлар органларида маънавий-маърифий ишларни ташкил этиш, соҳадаги ишларнинг устувор йўналишлари ва асосий принциплари асосида ишлаб чиқилган. Концепцияда ички ишлар органлари тизимида хизмат қиладиган барча ходимлар ва ҳарбий хизматчиларнинг умумий дунёқараши, сиёсий онги, маънавий ва интеллектуал салоҳиятини юксалтириш, уларда ватанпарварлик, ғурур, ифтихор, касбига нисбатан садоқат ва юқори масъулият ҳисларини ошириш билан боғлиқ вазифалар белгилаб берилган. Шу билан бирга, концепция миллий ва халқаро ҳуқуқ нормалари асосида ички ишлар органларида маънавий-маърифий ишларни самарали ташкил этиш тизимини янада такомиллаштириш, ходимларнинг маънавий салоҳияти ва мафкуравий иммунитетини кучайтириш, уларнинг онгида Ватан тақдири ҳамда келажаги учун дахлдорлик туйғуларини мустаҳкамлаш билан боғлиқ фаолиятнинг устувор йўналишларини акс эттиради.

Шу билан бир қаторда, концепциянинг асосий мазмуни сифатида ходимларнинг маънавий-руҳий тайёргарлигини ошириш, фаол ҳаётий позицияси, интеллектуал салоҳиятини, Она Ватан тақдирига бўлган масъулиятини мустаҳкамлаш, ғоявий ва ахборот хуружларига қарши мафкуравий иммунитетини кучайтириш, уларни фуқаролик бурчи ва конституцион мажбуриятларини садоқат ва фидойилик билан виждонан бажаришга йўналтириш бўйича маънавий-маърифий ишларни ташкил этишни ифодалайди.

Концепцияда ички ишлар органларида маънавий-маърифий ишлар «*Ватанга ва халққа садоқат билан хизмат қилиш - олий бурчимиз!*» концептуал ғояси асосида ташкил этилиб, унда давлат мустақиллигини ҳимоя қилиш, ҳуқуқ-тартиботни мустаҳкамлаш, жамоат хавфсизлигини таъминлаш ҳамда фуқароларнинг ҳуқуқлари ва эркинликларини муҳофаза қилиш устувор вазифа сифатида эътибор қаратилган.

Бугунги кунда мамлакатимизда ички ишлар органларининг фаолияти очик ва ошкоралик йўсинида, фуқароларнинг уларга ишончи ошишини таъминлайдиган тарзда ташкил этилмоқда. «Одамларни эшитиш бошланди. Уларнинг зарур муаммолари, дарду ташвишларини ўрганиш тизими яратилди»[5]. Хулоса қилиб айтганда, Давлатимиз раҳбари Шавкат Мирзиёев қайд этганидек: “Одамлар ички ишлар органининг ҳар бир ходимида ўз ҳимоячисини кўриши керак”. Зеро, эл-юртимизни ишончи ва меҳрини қозонган, том маънодаги халқпарвар ички ишлар тизимини яратиш борасида амалга оширилаётган кенг кўламли ислохотлар замирида мамлакатимиз тинчлиги ва барқарорлигини таъминлаш ва ҳалқимизни осуда ҳаётни асраб авайлаш муҳим аҳамият касб этади.

Фодаланилган адабиётлар:

1. Президент Шавкат Мирзиёевнинг Республика Маънавият ва маърифат кенгашининг кенгайтирилган мажлисидаги нутқи. Янги Ўзбекистон газетаси. 2023 йил 23 декабрь, 267-сон.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон «2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси» тўғрисидаги Фармони. <https://lex.uz/docs/5841063>
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон «2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси» тўғрисидаги Фармони. <https://lex.uz/docs/5841063>
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 2 апрелдаги ПҚ-5050-сон қарори. <https://lex.uz/ru/docs/5353841>
5. Ҳаракатлар стратегияси асосида жадал тараққиёт ва янгиланиш сари / М.Бекмуродов, Қ.Қуронбоев, Л.Тангриев. – Т., 2017. – Б. 25.

МАЪНАВИЙ-АХЛОҚИЙ ТАРБИЯНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ЖАМИЯТНИНГ ИЖТИМОЙ-МАЪНАВИЙ МУҲИТ БАРҚАРОРЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ АСОСИ СИФАТИДА

Жанибек Актамович Исмаилов

Жиззах давлат педагогика университети ўқитувчиси ўқитувчи. Жиззах

Маълумки, тарбия ёш авлодни жамиятда яшашга мақсадли тайёрлаш жараёни бўлиб, махсус ташкил этилган давлат ва жамоат институтлари орқали амалга оширилади, жамият томонидан назорат қилинади ва коррекцияланади.

Тарбия – шахсни мақсадли шакллантириш жараёни. Бу тарбиячи ва тарбияланувчиларнинг пировард мақсади жамиятга керакли ҳамда фойдалишахсни шакллантириш бўлган, махсус ташкил қилинган. Бугунги кунда тарбияга ижтимоий ҳодиса сифатида қарашданангланадики, тарбия жамият манфаатларини кўзлаб ва унинг ривожланганлик даражасига мувофиқ равишда амалга оширилади. Тарбия фақат тарбиячи ва тарбияланувчи ўртасидагимуносабат сифатида тушунилмаслиги лозим. У нафақат кенг ижтимоийдоирада амалга оширилади, балки табиатига кўра амалда барча ижтимоий-иқтисодий тузилмаларни ўзида қамраб олинандиган ижтимоий ҳодисасаналади: тарбия ҳаёт учун ва унинг давомийлигини таъминлаш учун ташкилэтилади.

Ана шу асосдан келиб чиқиб айтиш мумкинки, тарбия жараёнигатаъсир этувчи ижтимоий омилларга қуйидагиларни киритиш мумкин:

- мазкур жамиятнинг ижтимоий-иқтисодий ва ижтимоий-маданийшароитлари;
- тарбиянинг ижтимоий шартланганлиги;- тарбия ижтимоий бошқариш сифатида, назоратқилинадиган ва бошқариладиган ижтимоийлаштириш;
- тарбия ижтимоий аҳамиятли хулқ-атвор намуналарига одатлантиришсифатида;
- кичик (микро муҳит), ўрта (мезо муҳит) ва катта (макро муҳит) гуруҳва ҳамжамиятлар орқали тарбиялаш.

Мазкур омиллардан кўринадики, тарбиянинг ижтимоий моҳияти унингтурларидан бири бўлган маънавий-ахлоқий тарбияга ҳам тааллуқлидир.Тарбия жараёнига яхлит тизимли ёндашув ва уни бошқариш тарбиядаамал қиладиган ташки ва ички омиллар ҳамда улар ўртасидаги ўзароалоқадорликлар ҳисобга олинганидагина муваффақиятли амалга ошади.

Бунинг учун:

- бу омиллар ва уларнинг таъсир доираси ҳақида аниқ тасаввурларгаэга бўлиш;
- этика, ахлоқ, маънавият соҳасида ички ва ташки омиллар амалқилишини очиб берадиган муаммонинг методологик базасига таяниш(1- расм);
- ички ва ташки омиллар ўзаро алоқадорлигини методологик вапедагогик даражаларда кўра билиш ва ҳисобга олиш (.2- расм);
- ўқувчиларнинг кундалик ҳаётида бу омилларнинг ўрни ҳақида аниқтасаввурга эга бўлиш зарур.

Ташқи омиллар	Ички омиллар
<p style="text-align: center;">Ахлоқ</p> <ul style="list-style-type: none"> - ижтимоий онг шакли; - ижтимоий талаблар, меъёрлар ва баҳолар шакли; - ижтимоий фикр кўрсаткичи; - хулқни ташқи бошқариш шакли; - инсон томонидан ижтимоийгуруҳ аъзоси сифатида чеклашзарурати билан белгиланган. 	<p style="text-align: center;">Ахлоқ</p> <ul style="list-style-type: none"> - шахснинг ўз-ўзини англаш ва ўз-ўзини такомиллаштириш усули; - шахснинг ўз-ўзини бошқариш фаолиятида намоён бўлади. <p style="text-align: center;">Этика</p> <ul style="list-style-type: none"> - ўз-ўзи орқали ахлоқий жиҳатларни излашга ундайди; - инсоннинг ўз устида ички ишлаши жараёнида билинади. <p style="text-align: center;">Маънавият</p> <ul style="list-style-type: none"> - ички императивга айланган ташқи талаб; - инсоннинг ҳақиқатни излаши орқали ўз-ўзини ривожлантириши сифатида намоён бўлади; - хулқнинг ички регуляцияси

1 - расм. Ахлоқий тарбиянинг фалсафий асослари тузилмасида ички ва ташқи омилларнинг ўрни

Методологик даражада Педагогик йўсинда	Методологик даражада Педагогик йўсинда
<p>Ахлоқ шахс ва жамият ўртасидаги ўзаро муносабатларни бошқаради.</p> <p>Ахлоқ ижтимоий ва шахсий манфаатларни мувофиқлаштиришга объектив ижтимоий заруратни акс эттиради.</p> <p>Ахлоқ инсон ва жамият ўртасидаги муносабатларни уйғунлаштиришга йўналтирилган.</p>	<p>Тарбия жараёни ички ва ташқи –муҳит ва тарбия, ўз-ўзини тарбиялаш, ўз-ўзини мустаҳкамлаш алоқалари диалектикасини акс эттиради. Шахс ички ва ташқи ўртасидаги зиддиятларни бартараф қилиш жараёнида ўз-ўзини ривожлантиради.</p> <p>Тарбия жараёнида ички ва ташқи омиллар қатнашади. <i>Ташқи</i> омиллар: ҳаёт тарзи ва шароитлари, ОАВ, шахс ҳаёт соҳасига қирадиган жамоалар; <i>ички</i> омиллар: тарбияланувчининг индивидуал ва шахс хусусиятлари.</p>

2- расм. Ташқи ва ички омилларнинг ўзаро алоқадорлигининг қиёсий таҳлили

Асосий омиллар сирасига қуйидагилар қиради:

- ўқувчининг шаклланиб улғайган яшаш тарзи, у берилгансифатларнинг ривожланишига кўмаклашиши ёки (маълум шароитларда) унгатўскинлик қилиши мумкин;
 - турли минтақалар доирасида маълум яшаш тарзининг тикланишига кўмаклашадиган ҳаёт шароитлари (анъаналар, урф-одатлар; миллий хусусиятлар, табиий муҳит хусусиятлари);
 - оммавий ахборот ва тарғибот воситалари;
 - ўқувчи шахсига бевосита таъсир кўрсатадиган жамоанинг ривожланганлик даражаси ва яшаш шароитлари (тарбия тизимлари, ижтимоий фикр, қадриятли йўналганлик, ахлоқий меъёрлар, психологик муҳит);
 - бирламчи жамоаларда юзага келган ўзаро муносабат меъёрлари, ўқувчининг жамоавий муносабатлар тизимида тутган ўрни (мавқеи);
 - тарбияланувчининг индивидуал хусусиятлари.
- Этика ва ахлоқий тарбиянинг энг янги йўналишлари ишлаб чиқаётган муаллифларнинг маънавий-ахлоқий тарбиянинг асосий вазифалари ҳақидаги фикрларидиққатга сазовордир:
- этикага оид маърифатпарварлик – ўқувчиларга этикага оид билимлар бериш;
 - ўқувчиларни маънавий-ахлоқий ва ижтимоий воқеликка жалб қилиш;
 - этикага оид билимлар ва ижтимоий муносабатлар асосида шахснинг замонавий ахлоқ меъёрларига мувофиқ бўлган сифатларини шакллантириш.
- Ташқи талаблар махсус (педагогик) таъсирни ташкил этиш йўли биланички талабларга айлантирилади. Бу каби таъсир шундай шароитларни яратишга йўналтирилган бўлиши керакки, бунда:
- таъсир объекти айна пайтда изланаётган, шакллантирилаётган сифатлар субъектига ҳам айлансин;
 - тарбиядан кўзланган сифатларни шакллантириш тарбияланувчининг ички маънавий фаолияти натижасида рўй берсин;
 - ахлоқий сифатларни шакллантириш жараёни ўқувчи шахсининг ўз-ўзини тарбиялашига таянсин;
 - ташқи талаблар тарбияланувчининг психикасида шу қадар органик вақатий мустаҳкамлансинки, улар барқарор ахлоқий сифатлар бўладиганички ахлоқий эҳтиёж, эътиқодларга айлансин.

Хулоса қилиб, маънавий-ахлоқий тарбия жараёнининг ижтимоий мазмундорлиги ижобий мисоллар, меъёрлар ва қоидаларнинг бевосита таъсири билан эмас, балки тарбияланувчини нафақат ижобий, балки салбий тавсифга эга бўлиши мумкин бўлган ижтимоий муносабатларнинг кенг соҳасига жалб қилиш ватарбияланувчини бир неча муқобиллари мавжуд бўлгани ҳолда эркин шахсий танлов зарурати вазиятида бўлиши билан таъминланади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Подласый И.П. Педагогика. Новый курс. В 2-х кн. – М.: ВЛАДОС, 2005. Кн.2. – 256 с.
2. Педагогика: nopeдагогик олий таълим муассасалари учун мўлжалланган дарслик. У.И.Иноятов, Н.А.Муслимов, Д.И.Рўзиева, М.Ҳ.Усмонбоева. Тошкент: Низомий номидаги ТДПУ, 2016 – 256 бет.

**O‘ZBEKISTONDA MILLATLARARO MUNOSABOTLAR (SURXONDARYO VA
QASHQADARYO VILOYATLARI MISOLIDA)**

Nurmuhammad Gulmurodovich Xaydarov

*Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy ta’limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi
Arxivarius xodimi. Toshkent*

O‘zbekiston Respublikasi tarixan ko‘p millatli davlat sifatida shakllangan bo‘lib, mamlakatda 130 dan ortiq millat va elat vakillari tinch va ahillik muhitida birga yashaydi. Millatlararo munosabotlar esa mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotidagi muhim omillardan biridir. Ushbu maqola Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari misolida O‘zbekistondagi millatlararo munosabotlarning ahamiyati va xususiyatlari haqida mulohaza yuritadi.

Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari, O‘zbekistonning janubiy qismida joylashgan bo‘lib, har ikkala hudud ham tarixiy va madaniy jihatdan boy. Bu viloyatlar nafaqat o‘zbeklar, balki tajiklar, qirg‘izlar, turkmanlar va boshqa ko‘plab millat vakillarini o‘z ichiga oladi. Bu milliy tarkib, hududlarning madaniy boyliklarini yanada boyitib, turli madaniyatlara aloqalarni mustahkamlaydi.

Millatlararo munosabotlar, hududlarning barqarorligi va taraqqiyotida muhim rol o‘ynaydi. Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida millatlararo munosabotlar yaxshi yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, bu esa ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlaydi va iqtisodiy rivojlanishga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Millatlararo do‘stlik va hamkorlik, madaniy meros va an‘analarni asrab-avaylashga ham yordam beradi.

Hukumat tomonidan turli millatlarning o‘zaro hurmatini mustahkamlash va integratsiyasini rag‘batlantirish maqsadida ko‘plab dasturlar va loyihalar amalga oshirilmoqda. Masalan, har yili o‘tkaziladigan "Do‘stlik Festivallari", turli millat vakillarining san‘at va madaniyatini namoyish etish imkonini beradi. Shuningdek, ta‘lim tizimida ham millatlararo muloqot va hamkorlikni rag‘batlantirish chora-tadbirlari ko‘rilmogda.

Ta‘lim, millatlararo munosabotlarni mustahkamlashda kalit rol o‘ynaydi. Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida maktablar va oliy o‘quv yurtlarida turli millat vakillari uchun mo‘ljallangan maxsus dasturlar mavjud. Bu dasturlar orqali o‘quvchilar va talabalar turli madaniyatlar haqida bilim olishadi va bir-birlarining madaniy qadriyatlarini hurmat qilishni o‘rganishadi. Shuningdek, maktablarda o‘tkaziladigan madaniy tadbirlar va tanlovlar, o‘quvchilarning bir-biriga nisbatan qiziqishini oshiradi va ularni ko‘proq integratsiyalashga undaydi.

Ijtimoiy tadbirlar va madaniy almashinuvlar, millatlararo do‘stlikni rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Viloyatlarda turli millatlar madaniyatini namoyish etuvchi festival va ko‘rgazmalar muntazam ravishda tashkil etiladi. Bu kabi tadbirlar nafaqat mahalliy aholi orasida, balki viloyatlararo va hatto xalqaro miqyosda ham do‘stlik rishtalarini mustahkamlaydi. Masalan, "Surxon Taronalari" va "Qashqadaryo Bahori" kabi festivallar, milliy madaniyatlararo muloqotni faollashtiradi va turli millatlarning an‘ana va urf-odatlarini ommalashtiradi.

Ommaviy axborot vositalari (OAV) ham millatlararo munosabotlarni yaxshilashda muhim o‘rin egallaydi. Viloyatlar kesimida faoliyat yurituvchi televidenie, radio va bosma nashrlar, turli millat vakillarining hayoti va faoliyatini yoritib, ularning o‘zaro tushunishini oshirishga yordam beradi. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar va internet platformalari orqali yoshlar o‘rtasida millatlararo muloqotni rivojlantirish imkoniyatlari kengaymoqda.

Davlat siyosati va qonunchilik, millatlararo munosabotlarni tartibga solishda asosiy omil hisoblanadi. O‘zbekiston hukumati millatlararo munosabotlarni yaxshilash maqsadida qator qonun va qarorlarni qabul qilgan. Masalan, "Millatlararo munosabotlar to‘g‘risida"gi Qonun, milliy kamchiliklarga qarshi har qanday kamsitishni ta‘qiqlaydi va barcha fuqarolarning teng huquqliligi kafolatlanadi. Bundan tashqari, davlat millatlararo dialogni rivojlantirish uchun maxsus dasturlar va loyihalarni moliyalashtiradi va qo‘llab-quvvatlaydi.

Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari misolida ko‘rib chiqqanimizdek, O‘zbekistonda millatlararo munosabotlar ko‘p qirrali va murakkab jarayon hisoblanadi. Bu jarayon nafaqat mahalliy darajada, balki umummilliy va xalqaro miqyosda ham muhim ahamiyatga ega. Millatlararo munosabotlarni yanada mustahkamlash va rivojlantirish, mamlakatning barqaror taraqqiyoti va xalqaro

maydondagi obro'sini oshirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bu borada quyidagi qadam va yondashuvlar muhimdir:

Huquqiy himoya tizimini mustahkamlash, millatlararo munosabotlarni tartibga solishda juda muhimdir. Bu jarayonda har bir fuqaroning huquq va erkinliklarini himoya qilish, shuningdek, milliy kamchiliklarga qarshi har qanday turdagi kamsitishga qarshi kurashish zarur. Shu bilan birga, millatlararo munosabotlarni monitoring qilish tizimini yaratish va uni muntazam ravishda yangilab turish, muammolar va ziddiyatlarni erta aniqlashga yordam beradi.

Madaniyatlararo tushunish va hurmatni oshirish, millatlararo munosabotlarni yaxshilashning asosiy yo'nalishlaridan biridir. Buning uchun turli madaniyat va din vakillarining bayramlari va muhim sanalarini nishonlash, shuningdek, ularning madaniy merosini o'rganish va targ'ib qilish kabi tadbirlar zarur. Bu tadbirlar nafaqat mahalliy aholi orasida, balki butun mamlakat miqyosida ham madaniyatlararo muloqotni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Yoshlar millatlararo munosabotlarning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Yoshlarni turli madaniy va ijtimoiy faoliyatlarga faol jalb qilish, ularni turli millat vakillari bilan muloqot qilishga undash, ularning madaniyatlararo tushunish va hamkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish zarur. Bu borada, maktablar va oliy o'quv yurtlarida turli madaniyatlar haqida ta'lim berish, madaniyatlararo muloqotni rivojlantiruvchi dasturlar va loyihalarni amalga oshirish muhimdir.

Xalqaro hamkorlik, millatlararo munosabotlarni mustahkamlashda katta imkoniyatlar yaratadi. O'zbekistonning turli davlatlar bilan madaniy va ijtimoiy sohalarida olib borayotgan hamkorliklari, xalqaro tajriba almashinuvi va madaniyatlararo dialogni kengaytirishga yordam beradi. Bunday hamkorliklar nafaqat milliy, balki global miqyosda ham millatlararo munosabotlarni yaxshilashga xizmat qiladi.

Millatlararo munosabotlarni mustahkamlashda mahalliy jamoalar va ularning liderlarining roli juda muhim. Mahalliy jamoalarni qaror qabul qilish jarayonlariga jalb qilish, ularning o'z muammolarini o'zlari hal qilishlariga imkon berish, shuningdek, turli madaniy va ijtimoiy loyihalarni amalga oshirishda faol ishtirok etishlarini ta'minlash zarur. Bu yondashuv, jamoalarning o'zaro ishonchini oshiradi va millatlararo munosabotlarni yanada mustahkamlaydi.

Madaniyatlararo nikohlar va oilaviy aloqalar ham millatlararo munosabotlarni mustahkamlashda muhim o'rin tutadi. Bu kabi aloqalar turli madaniyatlar o'rtasidagi to'siqlarni buzishga va o'zaro tushunish hamda hurmatni rivojlantirishga yordam beradi. Shu sababli, davlat va jamoat tashkilotlari bu kabi nikoh va aloqalarni qo'llab-quvvatlashi va rag'batlantirishi muhim.

Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari misolida ko'rib chiqilganda, O'zbekistonning millatlararo munosabotlarini mustahkamlash borasidagi sa'y-harakatlar jamiyatning barqarorligi va taraqqiyotiga katta hissa qo'shmoqda. Bu viloyatlarda amalga oshirilayotgan turli ta'lim, madaniy va ijtimoiy dasturlar, milliy xilma-xillikni qadrlash va o'zaro hurmat muhitini yaratishda muhim rol o'ynaydi. Millatlararo munosabotlarni mustahkamlash orqali O'zbekiston nafaqat ichki jihatdan, balki xalqaro maydonda ham o'z nufuzini mustahkamlamoqda.

Davlat va jamiyatning bu boradagi sa'y-harakatlari, yosh avlodlarni turli madaniyatlar va dinlararo muloqotga ochiq bo'lishga tayyorlash, shuningdek, global va mahalliy miqyosda hamkorlik va tushunishni chuqurlashtirish zarur. Bu jarayonlar jamiyatdagi umumiy totuvlikni saqlash va kelajak avlodlar uchun yanada yaxshi sharoitlar yaratishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, O'zbekistonning boy madaniy merosi va tarixiy tajribasi bu yo'nalishda qimmatli manba va ilhom bo'lib xizmat qiladi, bu esa mamlakatning ko'p qirrali va barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2020). O'zbekistonda millatlararo munosabotlar to'g'risida.
2. Surxondaryo Viloyati Statistika Boshqarmasi. (2022). Demografik va ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar.
3. Qashqadaryo Viloyati Hukumati. (2021). Viloyatda millatlararo munosabotlar holati.
4. O'zbekiston Milliy Kutubxonasi. (2019). O'zbekistonning etnik va madaniy xilma-xilligi.

SOCIALLÍQ MÁNAWIY ORTALÍQTÍ RAWAJLANDÍRÍWDA MILLIY MÁNAWIY MIYRASLARDÍŇ ORNÍ

Asqar Abatov

*Ájiniyaz atındaǵı NókisMPI Milliy ideya, ruwxıylıq tiykarları hám huqıq tálimi oqıtıwshısı. Nókis
Gulnaz Umirzakova*

*Ájiniyaz atındaǵı NókisMPI Milliy ideya, ruwxıylıq tiykarları hám huqıq tálimi baǵdarı 4-kurs
talabası. Nókis*

Ótmishdegi bay mádeniy miyraslarǵa, ulıwma adamzatlıq hám milliy mánawiy kádriyatlarǵa húrmet – bul birinshiden onıń dóretiwshisi hám qádirlep saqlap kelgen xalıqqa húrmet-izzettiń belgisi. Álbette, óziniń ótmishi tariyxına, mádeniy miyraslarına hám milliy mánawiyatlarına úlken itibar hám húrmet penen qaraytuǵın xalıqtıń keleshegi jarqın boladı. Qaraqalpaq xalqınıń mánawiy miyrası bir ásirdeń jemisi emes, al pútkil tariyxı menen birge jasap, payda bolıp kiyatırǵan mánawiy baylıqlar esaplanadı.

Ótmishimizdi qanshelli jaqsı bilsek mánawiy miyras, milliy mánawiyatımızdı qádirlese, házirgi dáwirde, gárezsizligimizdiń qádirin, onıń áhmiyetin sonshellik tereń túsinemiz hám durıs bahalay alamız.

Qaraqalpaq xalqınıń uzaq tariyxına kóz jibersek xalqımızdıń tariyxınıń bir neshe ásirlik jıl-naması barlıǵın, awızeki xalıq dóretpeleriniń qaraqalpaqlardaǵı nusqası dúnyadaǵı hesh bir xalıqtan qalıspaytuǵın altın gáziynesiniń bizde barlıǵın sezemiz. Qaraqalpaq xalqınıń áyyemnen kiyatırǵan ózine tán dástúr hám úrp-ádetleri bar. Olar mazmunına kóre ádep-ikramlılıqqa, tárbiyaǵa, sabırlılıqqa tárbiyalaydı.

Adebiyatta insan ruwxıylıǵın jetilistirip barıwshı ayrıqsha bir kúsh bar bolıp, ol adamlardı tuwrı jolǵa baslawshı, ar-namıslı bolıwǵa shaqıratuǵın, adamdı hújdanlı bolıwǵa iytermelewshı ruwxıy baslama esaplanadı. Onı tek ǵana adamnıń etikalıq tárbiyalaw quralı sıpatında alıp qaralmastan, ol óz gezeginde insan kelbetin jetilis- tirip barıwshı gózzallıq, kóterinkilik, batırlıq, mártlik, saqıylıq, doslıq hám taǵı basqa insanǵa tán bolǵan úlgerdi beredi.

«Biziń háwes etse arziyтуǵın ullı tariyxımız bar. Háwes etse arziyтуǵın ullı ata-babalarımız bar» degen sózler hár birimizdiń júregimiz tórinde aytılıp tursa, ata-babalarımızdıń atları bizlerden keyingi áwladlarǵa da miyras bolıp, olardıń qatarında ullı tariyxımızdı sap-taza halında jetkizgen ómir dawamshıları sıpatında ózlerimizdi de kóriw baxtına miyasar bolar edik.

Mánawiy tárbiyanı tek bilimlendiriw sistemalarında bilim hám kónlikpeler beriw menen sheklep bolmaydı. Bul orında tariyx, kórkem ádebiyat, milliy miyraslardıń atqaratuǵın xızmeti ayrıqsha Usı kózqarastan kórkem ádebiy dóretpelerge aqıl-pikir juwırtatuǵın bolsaq, túrkiy dúnyada, ulıwma shıǵıs xalıqlarında huqıqıy bilimlendiriw hám tárbiyanıń payda bolıw, qalıplesiw derekleri kóbirek kórkem sóz arqalı jaslar ańına sińdirilip kelgenliginiń gúwası bolamız.

Xalqımızdıń tariyxı, mádeniyati, awızeki ádebiyatı, milliy dástúrleri, úrp-ádetleri, bayram-seyilleri, oyınları, jarısları, kórkem-óneri hám basqa tálim-tárbiya sistemasında qúdiretli tárbiya quralı sıpatında qollanılǵan.

Qaraqalpaq xalqınıń mánawiy miyrasınıń negizgi derekleri tómendegilerden ibarat: áyyemgi tariyxıy estelikler, xalıq awızeki dóretiwshiligi, etnografıyalıq derekler, jazba dárekler, shańaraqtıń tariyxıy dárekleri. Birinshi Prezidentimiz I.Karimov óz shıǵarmalarında mánawiyat, tárbiya máselelerine úlken dıqqat awdaradı. Onı biz «...Hár qanday mámleket, hár qanday millet jer astı hám jerústi baylıqları menen, áskeriy qúdireti hám islep shıǵarıwdaǵı is-háreketi menen, birinshi nábette bálkim, óziniń joqarı mádeniyati hám mánawiyati menen kúshli» degen pikirinen anıq uǵıpalıwımızǵa boladı. Milletler qanshama jaqınlasıp ketken menen olardıń wákilleri óziniń mánawiy kórinisi jaǵınan tolıq iykemlesip ketpeydi. Qaysı zamanda da millet bar bolsa, onıń mánawiy kamalatı menen baylanıslı bolǵan tárbiyanıń ózine tán milliy usılları, mazmunı hám baǵdarı da jetilisp bara beredi. Mádeniy miyrastıń ajıralmas bólegi ata-babamızdan bizge miyras bolıp qalǵan ádep-ikramlılıq normaları, dástúrler, úrp-ádetler, bayramlar bolıp tabıladı. Xalıq mánawiyati, salt-dástúrleri, úrp-ádetleri milliylikten kelip shıǵadı hám tariyxıy áhmiyetine qaray bahalı sanaladı. Mánawiy miyras

haqqında sóz júritiwden aldın ulıwma civilizaciya, miyras, atap aytqanda mádeniy miyras hám mánawiy miyras túsiniqleriniń ózine tánliginiń qásiyetleri, ayırmashılıqların bilip alıwımız kerek boladı. Mádeniy miyrastı túsineyturıp, mánawiy miyrastı túsiniw qıyın. Bultúsiniqler ulıwmalıq bolsa da, olar birdey emes, óz ara ayırım tárepleriniń qásiyetleri menen parıqlanadı.

Miyras-insaniyattıń hár bir tariyxıy basqıshında jasaǵan áwladları tárepinen jaratılǵan hám keyingisine jetip kelgen barlıq materiallıq hám mánawiy baylıqlar bolıp esaplanadı. Mádeniy miyras ta miyras sheńberine kiredi, biraq, onnan biraz parıqlanadı. Adamzattıń hár bir ata-babaları tárepinen jaratılǵan mádeniybaylıqları miyras sıpatında túsiniledi.

Mánawiy baylıqlar áwladtan áwladqa, bir dúzimnen ekinshi dúzimge miyras sıpatında ótedi hám jámiyet onıń mánawiy rawajlanıwına úlken tásir kórsetedi. Milliy tárbiya beriwde insan shaxsın qalıplestiriwde milliy-mádeniy miyras hám qádiriyatlardan paydalanıw, hár bir shaxstıń mánawiyatına ózine tán milliy baǵdar beriwge háreket etiw dep túsiniwge boladı. Mádeniy miyrastıń qádiri máńgi joǵalmaytuǵın bólimi milliy qádiriyat dep ataladı. Mánawiy miyras dep uzaq hám jaqın ótmishtegi, házirgi dáwirdegi mánawiyat tárepten júdá qimbatlı, óshpes iz qaldırǵan, máńgi jasaytuǵın, pútkil sociallıq mápi hám zárúrligine, jaqsılıqqa xızmet etetuǵın ulıwmainsanıy mánawiy baylıqlarǵa aytiladı. Mánawiy miyras mánawiy qádiriyat sıpatında kórinip, oǵan ilim, yaǵnıy filosofiya, ádebiyat, kórkem-óner, ádep-ikramlılıq, dindegi real, dúnyalıq táliymatlar hám t.b. kiredi.

Tárbiya kórgen adamlar ulıwma insaniyılıq qádiriyatlardı qanshama ózlestirgen bolsa da, bári-bir olar barlıq waqıtta belgili bir millettıń wákili bolıp qala beredi. Mánawiy jetik insan millet, watan ushın janı ashıp qayǵıratuǵın, milliy sanası rawajlanǵan shaxs bolıp tabıladı. Milliy sana–milliy máplerdi ózinde sáwlelendiren ruwxıylıq boladı.

Juwnaqlap aytqanda, ósip kiyatırǵan jas áwladtıń ádep-ikramlıq mádeniyatın qalıplestiriwde ullı oyshıllardıń aldınǵı oy-pikirlerin úyreniw júdá áhmiyetli. Orta Aziya oyshıllarınıń jas áwladtıń ádep-ikramlıq mádeniyatın qalıplestiriwge baǵıshlanǵan shıǵarmaların hám de olardıń jámiyettiń mánawiy ómirindegi áhmiyetin úyreniw, kórsetip beriw áhmiyetli orın iyeleydi.

Paydalanılǵan ádebiyatlar:

1. Prezident SH.M.Mirziyoyevtıń Ózbekstan zıyalıları menen ushırasıwdaǵı bayanatı. 04.08.2017 www.president.uz saytınan.
- 2 T.Qudaybergenova Huqıqıy ádep ikramlılıq tárbiya hám onı jetilistiriw máseleleri. //«Ilim hám jámiyet», №3, 2015.
3. E.Allambergenov jaslar sanasında ádep-ikram hám huqıqıy tárbiyanı qalıplestiriwdekórkem ádebiyattıń ornı. Ilim hám jámiyet.
- 4 Qaraqalpaq etnopedagogikası. Pedagogikalıq institut talabaları ushın oqıw qollanba. –Nókis: «Bilim», 2010.
5. A.Utambetova, M.SHavkatova «Mánawiy miyras – jámiyet tiregi» Ilim hám jámiyet. 2017
- 6.Ruwxıylıq tiykarları. -Nókis: «Qaraqalpaqstan», 2009.
7. F.Nazarbaev “Milliy tárbiya - mánawiy qádiriyatlar deregi» Ilim hám jámiyet.
- 8.Barkamol avlod-O’zbekiston taraqqiyotining poydevori. -T.: «SHarq», 1998.

AYMAĞIMIZDAĞI EKOLOGIYALIQ JAǴDAY AQÍBETLERIN JUMSARTIW MÁSELELERI

Ulbosın Kurbanbayeva

Ájiniyaz atındaǵı NókisMPI tayansh doktorantı. Nókis.

Adamzat óziniń ómiri, iskerligi barısında óndiristi rawajlandırıwı menen bir qatarda ekologiyalıq jaǵdaydı keskinlestirip jibermekte. Kúndelikli turmısta biz gúwası bolıp atırǵan hawanıń pataslanıwı, toǵaylardıń qısqarıp barıwı, suwlardıń óndirislik shıǵındıları menen pataslanıwı, tábiyat hádiyseleriniń ortasında teń salmaqlıqtıń buzılıwı, haywanat dúnyasınıń kemeyip baratırǵanı ekologiyalıq krizistiń ayqın mısalı desek boladı.

Ekologiyalıq jaǵdaydıń júda keskinslesip ketkenligin Orta Aziya aймаǵı mısasında da kóriwimiz múmkin. Hazirgi waqıtta Orta Aziyadaǵı eń úlken suw háwizi bolǵan Aral teńiziniń taǵdiri kópshilikke táshwishke salmaqta. Aral mashqalası hám milliy, hám aymaqlıq jánede global mashqala. Sonıń ushın da Aral boyındaǵı ekologiyalıq krizis aqıbetlerin saplastırıw, Aral teńiziniń qutqarıw boyınsha birgelikte is-ilájlardı ámelge asırıw aymaqlarara birge islesiw sheńberinde ayrıqsha áhmiyetke iye. [1,370]

Qaraqalpaqstan xalqı turmısı, jasaw sharayatı ulıwma, bul regiondaǵı ekologiyalıq mashqalaga baylanıslı. Bir payıtlar teńiz hám oǵan tutas dáryalar, jaylawlar adamlarǵa ırısqa, jumıs, dáramat deregi bolǵan. Lekin tábiyat nızamlıqlarına aralasıw, Amudárya hám Sırdárya suwın tosıw dúnyadaǵı salmaqlı ekologiyalıq apatlardan birin júzege keltirdi. Regionımızda shólleniw hám shorlanıw dárejesi keskin arttı. Ósimlik hám jabayı haywanlar túri azayıp ketti.

Házirgi kúnde eń iri global ekologiyalıq apatlardıń biri, bul Aral teńizi qurıwı bolıp, onıń ekologiyalıq, sociallıq-ekonomikalıq hám gumanitar aqıbetleri sebepli region, densawlıqtı saqlaw, genofond hám ol jaǵdayda jasap atırǵan adamlar kelesheginin turaqlı rawajlanıwına tikkeley qawıp salıp atır, sonıń menen birge, global ekosistemaǵa unamsız tásir kórsetip atır. Aralboyı krizis zonası tikkeley Qazaqstan, Turkmenstan hám Ózbekstan aymaqların, sonday-aq, Qırǵızstan hám Tájikstan aymaqların óz ishine aladı. Qánigelerdiń esap-kitaplarına kóre, búgin Araldıń qurıǵan bóleginde 5mln.gektarǵa teń aymaqta jańa duzlı shól payda bolǵan. Bul aymaqlarda jılına 90 kúnnen artıq dawir dawamında shań dúbeleyleri júz beredi hám 100 mln. tonnadan artıq shań hám záhárli duzlardı atmosferaǵa kóterip, mınlaǵan kilometrlerge jayıp jiberedi.[2]

Ózbekstannıń átrap-ortalıq jaǵdayı boyınsha milliy dokladta Aral teńizi hám regionı quramalı tábiyiy processler, atap aytqanda, onıń júzesi hám shorlanıwınıń keskin ózgeriwi, sonıń menen birge, hawa, suw hám jerdiń pataslanıwı, ıqlım ózgeriwi, shólleniw, jerlerdiń degradatsiyası, biokóp-túrlilik joǵalıp ketiwi jáne social-ekonomikalıq máseleler sıyaqlı tendensiyalar menen xarakterlenewi aytiladı.

Suwǵarıw ushın suwdıń hádden tis kóp isletiliwi, minerallasıwdıń kusheyiwi, pestitsidlar, dalalardıń aqabaları, duz, shań hám pestitsidlardı kóshirip juriwshi samal dúbeleyleri qubladaǵı xalıq tıǵız jaylasqan, ekonomikalıq hám ekologiyalıq tárepten zárúrli aymaq bolǵan Amudarya deltasına unamsız tásir kórsetip atır. [3, 62]

Atmosfera, topıraq hám suwdıń pataslanıwı hám sapasınıń jamanlasıwı xalıq salamatlıǵına unamsız tásir kórsetpey qalmaydı. Eń tiykarǵı mashqala, bul - xalıqtıń sapalı ishimlik suwı menen támiyinleniwi. Aralboyı xalqınıń yarımınan kóplegeni, ásirese, awıllıq jerlerde quramında minerallar kóp bolǵan sapası tómén bolǵan suwdan paydalanıwǵa májbúr. Suwdıń pataslanıwı, qurıǵan Aral teńizi túbinen kóterilip atırǵan shań hám duzlardıń muǵdarı keselleniw, ulıwma hám balalar ólimi, sonıń menen birge, bir qatar somatik kesellikler: anemiya, búyrek keselligi, as qazan - ishek kesellikleri, dem alıw organları, qan kesellikleri, ót tasları, júrek-qan tamır hám onkologiyalıq keselliklerdiń joqarı dárejede kóbeyiwinde sheshiwshi faktor esaplanadı. Derlik 60 payız úy xojalıqlarınıń azıq-awqat penen támiyinleniw dárejesi tómén. Kópshilik rayonlardaǵı xojalıqlar miywe, palız eginleri hám palız eginlerin jetistiriw ushın tamarqa jerleri hám de qara mallarǵa iye. Menshikli tamarqalarda jetistirilgen ónimler, tiykarınan úy xojalıqları ushın bolıp, onıń tek onnan bir bólegigana satıladı. Awıl xojalıǵında bántlik, jámi bántliktiń 25,1 payızın quraydı. Qaraqalpaqstan Respublikasında awıl xojalıǵınıń turaqlı rawajlanıwı, tiykarınan jer hám suw resurslariniń jaǵdayına baylanıslı. [3, 66]

Joqarıdaǵı jaǵdaylardı jumsartıw, xalıqtıń turmıs dárejesin jaqsılaw barısında maámleketimizde dástúrler, xalıqaralıq shólkemler menen birge islesiw, dúnya jámiyetshiligi itibarın elede bul apatshılıqlardıń aldın alıwǵa qaratıw boyınsha is-ilájlal alıp barılıp atırmaqta.

Aral teńizi krizisi aqıbetlerin jumsartıw hám Aralboyı aymaǵın rawajlandırıw boyınsha 2013-2017- jıllarǵa mólsherlengen is-ilájlal sheńberinde 500 den artıq joybar ámelge asırıldı.[1, 371]

Prezident Shavkat Mirziyoyev tárepinen ilgeri súrilgen baslamalar xalıq- aralıq dárejede qollap-quwatlanıp, 2021 jilda BMSH Aralboyı regionın ekologiyalıq innovaciya hám texnologiyalar zonası dep járiyalaw haqqında rezolyuciya qabıl qılındı, sál aldınlaw - 2018 jilda İnsan qawipsizligi boyınsha kóp tárepleme sheriklik tiykarında Trast fondına tiykar salınğan edi.

2023-jıl 22-24-mart mart kúnleri Birlesken Milletler Shólkeminiń Nyu-York qalasında bas rezidenciyasında strukturaniń Suw máseleleri boyınsha konferenciya ótkerildi. Ol jaǵdayda 2030 jılǵa shekem Turaqlı rawajlanıw maqsetleri jolında dúnyanı birlestiriw, planetamız párawanlığında teńiz hám okeanniń áhmiyeti, buǵan baylanıslığı global baslamalar BMSHǵa aǵza barlıq mámleketler, qánigelesken keńseler tárepinen abıraylı spikerlar qatnasıwında kórip shıǵıldı. Bunda Ózbekstan delegatsiyasınan Saida Mirziyoyeva “Aral teńiziniń daǵdarısı insanıyattıń átirap-ortalıqqa itibarsızlıǵı aqıbetleri haqqında qáweterli esletpe bolıp tabıladı. Biraq, ǵamxor adamlardıń umtıw-háreketleri sebepli ol taǵı úmit hám jańalanıw belgisine aylanıp atır”- dep aytıp ótti. [4]

Mámleketimizde hár birimizdiń ekologiyalıq huquqlarımız konstituciya hám basqada nızam hújjetlerinde bekkemlenip qoyılǵan. Konstituciyanıń 49-statyasında Hár kim qolay átirap-ortalıqqa, onıń jaǵdayı tuwrısında isenimli informaciyaǵa iye bolıw huquqına iye. Mámleket puqaralardıń ekologiyalıq huquqların támiyinlew hám átirap -ortalıqqa zıyanlı tásir kórsetiliwine jol qoymaw maqsetinde qalasızlıq iskerligi salasında jámiyetshilik qadaǵalawın ámelge asırıw ushın shárt-shárayatlar jaratadı. Qalasızlıq hújjetleriniń joybarları nızamda belgilengen tártipte jámiyetshilik talqılawınan ótkeriledi. Mámleket turaqlı rawajlanıw principine muwapıq, átirap -ortalıqtı jaqsılaw, qayta tiklew hám qorǵaw, ekologiyalıq teń salmaqlıqtı saqlaw boyınsha ilajlardı ámelge asıradı. Mámleket Aralboyı regioniniń ekologiyalıq sistemasın qorǵaw hám de qayta tiklew, regiondı social hám ekonomikalıq tárepten rawajlandırıw júzesinen sharalar kóredi.[5]

Sonıń menen birge mámleketimizde maqsetli rawajlanıw strategiyaları “2022-2026 jillarda Jańa Ózbekstannıń rawajlanıw strategiyası” hám “Ózbekstan 2030” strategiyasında da Ózbekstan aymaǵında átrap-ortalıqtı qorǵaw boyınsha reformalargada ayrıqsha toqtalıp ótilgen. Bunda: Respublikada ekologiyalıq jaǵdaydı túpten jaqsılaw, insanıń ómirine tásir ótkeriwshi ekologiyalıq mashqalalardı saplastırıw; ekologiyalıq jaǵdaydı turaqlastırıwǵa qaratılǵan “Jasil mákan” ulıwma milliy joybarın keńeytiw; toǵaylar maydanın keńeytiw; Aralboyı regionında ekologiyalıq jaǵdaydı turaqlılastırıw, Aral teńizi qurıwı nátiyjesinde júzege kelgen ekologiyalıq mashqalalardı unamsız tásirin jumsartıw; iqlım ózgeriwi unamsız tásiriniń aldın alıw; biologiyalıq kóp túrlilik isenimli saqlanıwın támiyinlew; qattı xojalıq shıǵındılardı toplaw hám alıp shıǵıw xızmetleriniń sapasın jaqsılaw; atmosfera hawası pataslanıwınıń aldın alıw, onıń tábiyiy quramın saqlaw boyınsha keskin sharalar kóriw sıyaqlı bántler orın alǵan.

Aralboyı regionında ekologiyalıq jaǵdaydı turaqlılastırıw, Aral teńizi qurıwı nátiyjesinde júzege kelgen ekologiyalıq mashqalalardı unamsız tásirin jumsartıw barısında bir qansha wazıypalar belgilengen bolıp bular: Aralboyı regionında toǵayzarlardı 2,3 million gektarǵa jetkiziw; Aral teńiziniń qurıǵan túbinde qosımsha 600 miń gektar jasil maydanlardı júzege keltiriw, olardıń ulıwma kólemin 2,6 million gektarǵa yamasa aymaqtıń 80 procentine jetkiziw.

“Jasil iqlım” hám Global ekologiyalıq fondlardıń bioxilma-xillik, iqlım ózgeriwi hám topıraq jemiriliwiniń aldın alıwǵa qaratılǵan programmaları tiykarında 300 million dollar ma`nisindegi joybarlardı ámelge asırıw.

Xalıq aralıq sherikler menen “Aral teńizi hawıziniń tómen aǵımındaǵı degradatsiyaga dus kelgen jerler jaǵdayın jaqsılaw” joybarın ámelge asırıw máselelerine ayrıqsha itibar qaratılǵan.[6]

Juwmaqlap aytqanda, aymaǵımızdaǵı ekologiyalıq jaǵdaylar keskinlesiwiniń aldın alıw, ekologiyalıq krizistiń aqıbetlerin jumsartıw mámleketlik siyasat dárejesinde alıp barılıp, bul salada ámelge asırılıp atırǵan islerdi global masshtabda ámelge asırıw búgingi kúnniń aktual máselesi bolıp qalmaqta. Ekologiyalıq mashqalalardı aldın alıwda mámleketimizde jasap atırǵan hár bir insanıń,

puqaralıq jámiyeti institutlarınıń, bilimlendiriw mákemeleriniń belsendiligi úlken áhmiyetke iye. Jer sharında adam sanıń ósiwi, tábiyiy resurslardıń sheklengenligi, qorshaǵan ortalıqqa insanlardan sanalı múnasebette bolıp, tábiyattıń nızamlıqlarına boysınıwǵa, onı asrap-abaylaw ushın hár bir insan óz úlesin qosıwǵa shaqıradı.

Paydalanılǵan ádebiyatlar:

- 1.J.Tulenov, K.Tulenova, G.Tulenova. Falsafa. Darslik- Toshkent: “Innovatsiya-Ziyo” 2022,
2. www.strategy.uz
